

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
A. QODIRIY NOMLI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
PEDAGOGIKA-PSIXOLOGIYA FAKULTETI
DEFEKTOLOGIYA KAFEDRASI

“Himoya qilishga ruxsat beraman”
Pedagogika-psixologiya fakulteti dekani
prof. X.A. Meliyev
“ _____ ” _____ 2012 y

5141800 – Defektologiya yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun

“YORDAMCHI MAKTABLARDA TABIATSHUNOSLIKNI
O'QITISHNING TA'LIMiy – TARBIYAVIY VA KORREKSION
AHAMIYATI”

MAVZUSIDA BAJARILGAN

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

Bajaruvchi: Irkayeva Dilobar Shirinboy qizi
401-guruh talabasi
Ilmiy rahbar: o'qit. D. Tangirova

Ishni himoyaga tavsiya etaman: o'qit. D. Tangirova _____
(imzo)

BMI Defektologiya kafedrasi yig'ilishining qarori bilan
(Qaror № 10; 25.05.2012 y.) himoyaga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri v/b: X. Muzaffarova _____
(imzo)

JIZZAX – 2012

MUNDARIJA

KIRISH.....

I.BOB. YORDAMCHI MAKTABLARDA TABIATSHUNOSLIKNI O'QITISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI.

**1.1.Yordamchi maktablarda tabiatshunoslik darslarini o'qitishning
korreksion-tarbiyaviy ahamiyati.....**

**1.2.Tabiatshunoslik darslarida ta'lim-tarbiya jarayoning o'zaro
bog'liqligi.....**

II. BOB. TABIATSHUNOSLIK DARSLARINING KORREKSION TA'LIMIY-TARBIYAVIY YO'NALTIRISH METODLARI.

2.1. Tabiatshunoslik darslarining korreksion yo'naltirish metodlari...

**2.1.Tabiatshunoslik darslarini korreksion yo'naltirishlarini tekshirish
natijalari.....**

2.3. Maxsus maktabda tabiatshunoslikni o'qitish tarixidan.....

XULOSA.....

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....

KIRISH

Mustaqillikka erishilgandan keyin o'tgan qisqa muddat davomida boshqa soxalar qatori ta'lim tizimida ham mamlakatimiz va dunyodagi ijtimoiy va siyosiy iqtisodiy va manaviy hayotning o'zi shaxs va davlat va jamiyat oldiga yangidan yangi vazifalarni qo'ydi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XI sessiyasida qabul qilingan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" hamda "Ta'lim to'g'risida" gi qonun ijtimoiy ehtiyojni tarixiy taraqqiyotini o'z kun tartibiga qo'ydi.

Qabul qilingan hujjatlar mavjud tizimning axvoli va muammolarining taxlil qilish hamda xalqaro tajriba asosida yaratilgan bo'lib Kadrlar tayyorlashning tamomila yangi modeli ishlab chiqildi.

Mamlakatimiz kelajagi uchun Oliy Majlisning IX sessiyasida qabul qilingan Kadrlar tayyorlash buyicha milliy dasturining amalga oshirish juda yaxshi ahamiyatga ega.

Maqsadimizga erishish – deydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov yangi demokratik jamiyatni qurish isloxotlarning taqdiri qanday intellektual kunlarga egaligimizga yoshlarimiz qanday madaniy va professional saviyaga erishganligiga qanday ideallarga etiqod qilishga manaviy jixatdan qanchalik boyishiga bog'liqdir.

Shu bois aholining ma'lumot olish imkoniyatini oshirish milliy tiklanish g'oyasini amalga oshirishga qodir yangi avlodni tarbiyalash jarayoni uning doimiy muntazam izchil va bir shaklda bo'lishini taqazo etadi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan boshlab nogiron bolalarga maxsus ta'lim tarbiya jarayonini takomillashtirish yangi milliylik va o'z-o'zini anglash ruxida tarbiyalash o'qitish yangi darsliklar o'quv qo'llanmalarini tayyorlashga katta e'tibor berilmoqda.

Ommaviy maktab o'quvchilarini ta'lim-tarbiyasi qatorida yordamchi maktab o'quvchilarini ta'lim tarbiyasiga yangi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida nogironlarni ijtimoiy xuquqiy ximoya qilishni davlat o'z burchi deb biladi. (Konstitutsiya 4- modda)

Maxsus yordamga muxtoj bolalarni ijtimoiy ximoyalash ularga ta'lim-tarbiya berish jamiyatda o'z o'rnini topib ketishga imkon yaratish kabi masalalar doimo davlatimiz nigoxida turgan asosiy masalalardan biri bo'lib kelgan va hozirgi kunda ham eng dolzarb masala bo'lib kelmoqda.

Davlatimizning qator qonun va xujjatlarida ham alohida e'tibor berilgan. 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi ta'limi to'g'risidagi qonun" ning 23-moddasida jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar va o'smirlarni o'qitish masalalari shuningdek "Bolalar xuquqlari " to'g'risidagi konvensiyaning 23 moddasida ham aqliy va jismoniy jixatdan rivojlanmagan bola o'zining qadr- qimmatini taminlaydigan, o'ziga ishonch tug'diradigan, uning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini shakillantiradigan sharoitlarda to'laqonli munosib ravishda yashashi lozimligini etirof etadilar. Jismoniy va ruxiy kamchilikka ega bo'lgan bolalar yordamchi maktab va maktabgacha tarbiya muassasalarida ta'lim tarbiya olishlari bilan ularni ruxiy jismoniy kamchiliklari har bir darsda to'g'rilanib borgani sari "Tabiatshunoslik" darslarida ham kamchiliklar to'g'rilanib boradi. Tabiatshunoslik o'qituvchisining vazifasi aqli zaif o'quvchilarga jonli va jonsiz tabiat haqida bilim berar ekan boshlang'ich sinfdan to yuqori sinfgacha korreksion vazifalarni rivojlantirib boradi.

Inson o'zining butun umri davomida o'zgarib turadi. Bu o'zgarish turli shaklda, mazmunda, ko'rinishda bo'lishi mumkin.

Insonning ruxiy, jismoniy rivojlanishi qonuniy jarayon bo'lib shaxsning turli faoliyat jarayonlarida shakllanadi.

Bolalar va o'smirlarning rivojlanishi o'z ichiga ham jismoniy holatlari xam ruxiy jarayonlarni oladi. Inson biologik mavjudot bo'lganligi sababli tabiatning qonunlari unga xam taluqlidir. Ammo bu qonunlar insonlarga boshqa jonli mavjudotlarga ko'ra boshqacharoq ta'sir etadi. Shaxsning rivojlanishi kamolot darajasiga yetishi masalasiga turli g'oyalar bilan qarashgan olimlar faylasuflar ruxshunoslar turlicha yondoshganlar. Ingliz faylasufi Djon Lokk fikricha jamiyatda kishilarning rivojlanishida yetakchi omil muxitdir.

Insonlar tashqi olamni atrof-muxitni o'zgartirib borish bilan birga o'zlarini ham o'zgartirib boradilar. Bularning xammasi ta'lim va tarbiyani turli faoliyatlarda amalga oshiradi.

Yordamchi maktabda aqli zaif o'quvchilarga beriladigan ta'lim tarbiya ishlarini barchasida ruxiy va jismoniy kamchiliklarni tuzatish (korreksiyalashga) qaratilgandir.

Yordamchi maktab o'quv fanlarini maqsadi ham aqli zaif o'quvchilar bilish faoliyatlarini tuzatib ularni kelajakda kamol topib mustaqil mehnat faoliyatiga ko'nikma va malakalar hosil qilishdan iboratdir. Bunday vazifalar ayniqsa tabiatshunoslik darslarida keng ma'noni o'z ichiga oladi.

Yordamchi maktab tabiatshunoslik darslarining boshlang'ich sinflaridagi tuzatish (korreksion) ta'lim-tarbiyaviy ishlari o'quvchining bilish faoliyatini nutq, idrok, xotira, sezgi analizatorlarini korreksiyalasa, 5-sinfdan boshlab ularning boshlang'ich sinfida olgan jonli va jonsiz tabiat bo'yicha bilim malakalari yuqori sinflarda kengaytirib bilim ko'nikmalariga aylanadi. Aqli zaif o'quvchilarning bilish jarayonlari korreksiyalanadi. O'yin qo'l mehnati fanlarni o'qitish ekskursiyalar yotadi. Ammo uning tizimida xam sensor tarbiya batamom barxam topmadi. Bu uning tizimidagi kamchilik edi.

X.S. Zamskiyning ko'rsatishicha, yordamchi maktablardagi tuzatish ishlari birinchi navbatda ayrim kamchiliklarni to'g'rilashga qaratilmasdan balki shaxsni bir butunligicha bilimlarni egallash malaka ko'nikmalar bilan qurollantirish mehnat faoliyatiga tayyorlashni ham o'z ichiga olishi lozim.

G.M. Dulnevning yozishicha "Mehnat ta'limi bilan aqli zaif bolalar kamchiliklarini tuzatish orasidagi bog'liqlik normal bola ta'limi va rivojlanishi orasidagi bog'liqlikka o'xshaydi. Bu yerda ta'lim faol maqsadga muvafiq tuzatish rivojlantirish shaklida tashkil qilinsa umumiy kamolotda yetakchi vazifani o'taydi".

Bu masalani to'g'ri tushunish xam nazariy xam amaliy ahamiyatga ega J.I. Shifning ta'kidlashicha "aqli zaif bolalar ta'limi tuzatuvchi tarbiyaviy xarakter kasb etish lozim".

Tuzatish ishlari eshitalishidan osongina to'g'rilash yumshatish degan ma'noni bersa ham amalda maktab hayotida aqli zaif bolalar bilan ish olib boradigan amaliy xodimlar buning juda xam murakkabligini yaxshi tushunadilar. Chunki bilimlar tizimini berish tarbiyalash shaxsni shakllantirish bevosita to'g'ridan to'g'ri amalga oshirilmaydi. Bu ish xar bir soatlik dars jarayonlarida tarbiyaviy ishlarda o'quvchining butun hayoti davomida amalga oshirilib boriladi. Bu ishlar soatlab o'lchanmaydi balki haftalab, oylab, yillab amalga oshirib borilishini taqazo etdi. Toma-toma ko'l bo'lur deydi dono xalqimiz. Xa 9 yil davomida zarrachadan singdirilib borilsa ham hayot bo'sag'asida aqli zaif bolalarda juda katta o'zgarishlar bo'lganligini ko'ramiz. Bu o'rinda mashxur fransuz shifokori va oligofrenopedagog E. Segenning chuqur aqli zaiflarga oid quyidagi fikrlari juda ham tasirlidir: Agar u (nuqsonli bola) ishyoqmas, qobilyatsiz, etiborsiz bo'lsa bir so'z bilan aytganda unda siz yoqtiradigan birorta ijobiy fazilat bo'lmasa, shunda xam ruxan tushmang.

Agar u har doim yotsa turg'azib, o'tg'azib qo'ying, agar u o'zi yemasa, ovqatlantirish vaqtida uning barmoqlarini ushlang, agar u umuman xarakatlanmasa, uning muskullarini xarakatlantiring, agar u qaramasa, gapirmasa, unga siz gapiring, ko'zlariga qarang: uni ishlayotgan kishilardek ovqatlantiring va bir ishlashga majbur eting; uning irodasi, tafakkuri bo'ling. Agar siz 3 4 yil ichida unda biror qobilyat, nutq, tafakkur elementlarini shakllantira olmagan bo'lsangiz ham sizning mehnatlaringiz zoya ketmaydi.

Rus defektologi A.Graborov o'zining pedagogik tizimida ko'rsatishicha, o'yin, qo'l mehnati fanlarni o'qitish ekskursiyalar orqali korreksion tarbiyalash mumkinligini ko'rsatadi. Rus oligofrenopedagogikasida tuzatuvchi (korreksion) talim nazaryasi G. M. Dulnev nomi bilan chambarchas bog'liq. U yordamchi maktablar uchun o'quv rejasi, darslik, uslubiy adabiyotlar yaratgan ekan uning adabiyotlarida aqli zaif bolalar talim tarbiyasida korreksion tuzatish ishlarini ahamiyati juda kattadir. Aqli zaif bolalarga "mehnat talimi bilan, kamchiliklarni tuzatish, sog'lom bola talimi va rivojlanishi orasidagi bog'liqlikka o'xshaydi", – deydi. Ta'lim faol maqsadga muvofiq korreksion (tuzatish) rivojlantirish shaklida tashkil qilinsa umumiy kamolotga yetakchi vazifani o'taydi.

Bu masalani to'g'ri tushunish ham nazariy ham amaliy ahamiyatga ega. J.I.Shifning ta'kidlashicha "aql zaif bolalar ta'limini tuzatuvchi-tarbiyaviy ahamiyat kasb etishi lozim"

Korreksion-tuzatish ishlar to'g'rilash yumshatish ma'noni bersa ham amalda maktab hayotida aqli zaif bolalar bilan ish olib borishda oligofrenopedagog o'qituvchilar qiyinchiliklarni yaxshi tushunadilar.

Har bir tabiatshunos o'qituvchi o'quvchilarni kelajakda o'z o'rnini topib keta olishiga ko'nikma va malakalar hosil qilib ularni bilish faoliyatlarini (tuzatib) korreksiyalab boradi.

Bilim ko'nikma malakalarni egallab borish jarayonida aqli zaif o'quvchilarning bilish jarayonlari shakllanib ularning xissiyot-iroda sifatlari rivojlanadi. Bolada bilimga qiziqish qobiliyatlari tirishqoqlik kabi shaxsiy sifatlar takomillashib u bir butunligicha tarbiyalanib unda hayotga bo'lgan munosabatlar shakllanib bo'lgan.

Ta'lim tarbiya shaxsning rivojiga qaratiladi. Ta'lim tarbiya kamolot bog'liqligining murakkabligi asosan ikki omil bilan boshlanadi.

Birinchi omil – ta'lim tarbiya rivojlanishi jarayonining tashqi sharoitlari (o'qituvchining maxorati uning malakasi) shaxsiy sifatlari ta'lim – tarbiyani tashkil qilish ta'lim tarbiya usullarining maqsadga qaratilganligi bo'lsa, ikkinchidan ta'lim-tarbiya va rivojlanish jarayonlarining ichki tomoni bo'lib o'quvchilarning yosh individual va xarakter xususiyatlaridir.

S.A.Rubinshteyn xaqli ravishda “tashqi sabablar tasirotlar ichki sharoit orqali tasir qiladi” degan edi. O'qituvchi ta'lim jarayonini tashkil qilishda ularning barcha xususiyatlarini e'tiborga olish bilan birga ichki holatlarini aniq (konkret) yakka bola xususiyatlarini nazarda tutishi kerak.

Ta'lim maxsus tashkil etilgan bilish faoliyati bo'lib, kishilik jamiyatining turli soxadagi tajribalarini egallashga hizmat qiladi. Maxsus yordamchi maktablardagi ta'lim ham yosh avlodga ilm, fan, g'oya, axloq. Madaniyat, sanat va o'rganiladigan fanlardagi ta'lim-tarbiyaning (elementar) oddiy bilimlarini mavxum tafakkur jarayonlarini tuzatishdan iborat.

Tafakkur jarayonlariga taxlil sintez umumlashtirish induksiya deduksiya xulosalash va boshqa fikriy jarayonlar kiradi.

Tadqiqot maqsadi.

1.Yordamchi maktab tabiatshunoslik darslarining ta'limiy va tarbiyaviy korreksion vazifalarini o'rganish va tahlil qilish.

2. Aqli zaif o'quvchilarni tabiatga bo'lgan munosabatlarini zamon talabiga mos keladigan ruxda tarbiyalash usullarini ishlab chiqish.

Tadqiqot vazifalari.

Aqli zaif o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishning korreksion vazifalariga doir maxsus adabiyotlar tahlili.

- Korreksion ta'limiy-tarbiyaviy vazifalarni kelajakda aqli zaif o'quvchilarni ijtimoiy moslashishiga tasirini o'rganish.

- Tabiatshunoslik darslarida korreksion vazifalarni bajarishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishda zamonaviy ta'lim-tarbiya korreksion usullarni belgilash.

Tekshirish obyekti.

Jizzax viloyati xalq ta'limiga qarashli 32-sonli yordamchi maktab internatida olib borildi.

Tadqiqot predmeti.

Tabiatshunoslik darslarining korreksion ta'limiy-tarbiyaviy roli

Tadqiqot metodlari.

1. Mavzuga doir umumpedagogik psixologik va maxsus adabiyotlarni taxlil qilish;

2. Tabiatshunoslik darslarida korreksion (tuzatish) ishlarini kuzatish tajribalarini o'rganish.

3. O'qituvchi ota-onalar bilan suxbatlashish.

Malakaviy bitiruv ishining tuzilishi.

Kirish qismi, 2 ta bob, Xulosa, Adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I. BOB.YORDAMCHI MAKTABLARDA TABIATSHUNOSLIKNI O'QITISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI.

1.1. Maxsus maktablarda tabiatshunoslikni o'qitish tarixidan.

Tabiatshunoslik metodikasi tabiatshunoslikning o'quv predmeti sifatida rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan o'zining tarixiga ega. Birinchi metodist deb Vasiliy Fedorovich Zuyevni xisoblash mumkin. U xalq bilim yurtlarida tabiatshunoslik darslarini olib bordi o'qituvchilar seminariyasida leksiylar o'qidi. V.F. Zuyevni "Tabiat tarixining ko'rgazmalari" nomli darslikni nashr qildi. Unda tabiatni o'rganish izchilligi qazilmalar dunyosi, (jonsiz tabiat) o'simliklar dunyosi (botanika), hayvonlar dunyosi (zooloogiya), ko'rsatilgan bu darslik o'quv predmeti sifatida tabiatga asos soldi.

V.F. Zuyev maktab o'quvchilarining tabiiy obektlarini o'rganishlarini talab qildi. Chunki u minerallarni o'simlik va hayvonlarni bevosita sezgilar orqali qabul qilib olinishini yuqori baholar edi. Bundan tashqari o'z o'lkasining tabiatini o'rganish albatta kerak deb ko'rsatadi. Bu kitob o'qitishning hozirgi tabiatshunoslik prinsipiga muvofiq keladi. Biroq bu ilg'or g'oyalar fanda soxalashtrish metodlar xukmron bo'lgan sharoitda o'quvchilardan faqat darslik matnini mexanik ravishda yod olish talab qilingan bir vaqtda amalga oshirilishi mumkin emas edi.

XIX asr o'rtalarida ilg'or pedagogik fikrlarni ifodalovchilardan biri Konstantin Dmitriyevich Ushenskiy bo'ldi. U kuzatish metodini tabiatni bilib olishda eng samarali metod sifatida ajratadi, "ona tili" va "bolalar dunyosi" nomli o'qish kitoblariga tabiatshunoslik bilimlarini bayon qilganda kuzatish va tajribalar o'tkazishni talab qiluvchi tabiat to'g'risida boy material kiritdi.

K.D. Ushenskiy bolalarni tabiat bilan tanishtirishni o'z joyi o'z o'lkasini o'rganish bilan birga boshlashni taklif qildi. Bunda kitobni o'qish yoki o'qituvchi axbarotidan olingan tasurotlarni bola kuzatishlari yordamida tushuna olsun. Ushenskiy ta'kidlaganidek o'z joyi tabiatini o'rganishning bosh metodlaridan biri kuzatishdir chunki ular kuzatuvchanlikni vujudga kelitirishga yordam beradi.

“Bolalar dunyosi” kitobida Ushenskiy bolalarni nutq rivojlanishi asosida oddiy mantiqiy ishlarga o’rgatish uchun tabiatni qanday kuzatish zarurligini ko’rsatib bordi. Mustaqil qabul qilinganlarga o’quvchilar xotirasida mustahkam saqlanib qolishini tasdiqlab u pedagogik jarayondagi kuzatish metodining rolini misli ko’rilmagan darajada yuqoriga ko’tardi.

XX asr boshlarida boshlang’ich maktabda tabiat o’qitilishida uch yo’nalish belgilandi. Tabiatni izohli o’qitish o’quvchilarga qancha bo’lmasin tabiat to’g’risida bir butun tasavvur bera olmagan chunki ular tabiat to’g’risida tarqoq ma’lumotlar olar edilar.

Vladimir Aleksandrovich Gerd o’zining “boshlang’ich maktab kursidagi tabiat aloxida predmet sifatida ” nomli kitobida jiddiy qarshi chiqdi. U D.I.Tixommirov takliflarini tanqidiy taxlil qilib tabiat darslarini izoxli o’qish darslari bilan almashtirish mumkin emas degan xulosaga keldi. Bunda V.A. Gerd boshlang’ich tabiatni aloxida predmet qilib ajratish zarurligini ishonchli ravishda isbot qildi. Uning fikricha faqat shu sharoitdagina darslarda shu predmetga xos metodlardan foydalanish va shu asosida bolalarga tabiat to’g’risida butun tasavvur berish hamda tabiat hodisalarining farqiga bora olish uquvini hosil qilish imkoniyati to’g’ildi. Bu predmetni joriy qilinishi bilim xarakteri material xajmi hamda o’rganish izchilligini tuzishni shuningdek o’quv soatlari ajratilishini va kursning umumiy sistemasida darslar vorisligini taminlashni talab qiladi.

Bu masalaga Vasiliy Prokofyevich Vaxterov bir muncha boshqacharoq qaradi. “o’qitishning predmetli metodi” nomli kitobida tabiatni og’zaki o’qitishni qoralab u tabiatni kuzatishlar, tajribalar, tabiat narsalarini namoyish qilishga tayanib o’rganishning yani predmetli o’qitishning muximligini isbot qildi.

Bu uch yo’nalish – “tixo mirovcha” – boshlang’ich maktabda tabiatni o’rgatishni izohli o’qitishga kiritish; “vaxterovcha” – tabiat bo’yicha uni maxsus predmet sifatida ajratmasdan alohida predmet darslari o’tkazish; “gerdcha” – tabiatni o’quv planida maxsus predmet sifatida ajratish inqilobgacha bo’lgan davrda qaror topdi.

XIX asr o'rtalarida ilg'or pedagogik fikrlarni ifodalovchilardan biri Konstantin Dmitriyevich Ushinskiy (1824—1870) bo'ldi. U kuzatish metodini tabiatni bilib olishda eng samarali metod sifatida ajratdi. Kuzatishlar, tajribalar va ekskursiyalar bilan tabiiyot o'qitish sistemasini birinchi bo'lib Aleksandr Yakovlevich Gerd (1841 —1888) taklif qildi. U ta'kidladiki, ko'rgazmali o'qitish bola idrokining aniq holatiga muvofiq bo'lishi kerak. Gerd shunday sistemani bunyodga keltirdiki, unda tabiiyotni o'rganish jonsiz tabiatdan boshlanadi, u boshlang'ich sinflarda jonsiz tabiat kursini o'qitish metodikasini ishlab chiqdi. U “Tabiiyot qisqa kursi” nomli darslik, shuningdek “Yer, havo, suv” nomli o'quv qo'llanma va ularni o'qitishga oid “Boshlang'ich maktabda predmetli darslar” nomli metodik qo'llanma (1883) yozdi. Bu kitob uzoq vaqtlargacha jonsiz tabiat kursi bo'yicha asosiy qo'llanma bo'lib keldi.

1917 yildayoq V.A.Gerdning “Boshlang'ich maktab kursida alohida predmet sifatida tabiiyot” nomli kitobi nashr etildi, unda muallif tabiiyotni boshlang'ich maktabda maxsus predmet sifatida o'qitish zarurligini isbot qildi. Masalani bunday qo'yilishi tabiiyot bo'yicha tezda yangi dastur tuzishni talab qildi. 1919 yili maorif Komissarligi tomonidan tabiiyot bo'yicha taxminiy dastur tuzildi va tasdiqlandi. Unda ekskursiya va amaliy ishlarga katta e'tibor berildi.

M.N.Skatkin o'z tadqiqotlarida tabiatshunoslik bo'yicha sinfdan tashqari ishlar tashkil qilish metodikasi hamda tabiatni o'rganish bo'yicha mashg'ulotlarda bolalarning bilish faoliyatini faollashtirish masalalariga katta e'tibor berdi.

1959 yildan boshlab, har yili 1-4 sinf o'quvchilari uchun “Kuzatish kundaliklari” nashr qilinmoqda, uning muallifi V.A.Valerianova o'quvchilarning ob-havoni, o'simlik va hayvonlar hayotidagi o'zgarishlarni, qishloq xo'jaligida odamning mehnat faoliyatini muntazam ravishda kuzatishlarini tashkil qilishda o'qituvchiga yordam berish vazifasini qo'yadi.

Tabiiyot metodikasiga mashhur metodist S.A.Pavlovich (1884—1976) katta hissa qo'shdi, uning ishlari boshlang'ich maktabda tabiiyot darslarini metodik jihatdan to'g'ri tashkil qilishga yordam berdi. Uning “Boshlang'ich maktabda tabiiyot o'qitish amaliyoti” (1939), “Jonsiz tabiat to'g'risidagi tushunchani qanday o'qitish kerak” (1948), “Tabiatshunoslik bo'yicha kitob. Tabiatning asoslari va metodikasi” (1969) nomli ishlari ancha mashhurdir. S.A.Pavlovichning tabiiyot va tabiatshunoslik darslarini o'quv qurollari bilan jihozlash to'g'risidagi kitoblari hozirgi vaqtda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

1969 yildagi o'rta umumta'lim maktabi islohotidan keyin tabiatshunoslik 2-va 3-sinflarda mustaqil predmet sifatida o'qitila boshladi va faqat 1-sinfda tabiatshunoslik materialidan o'qish va nutqni rivojlantirish darslarida foydalanildi.

Umumta'lim va kasb-hunar maktablarini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari munosabati bilan tabiatshunoslikni o'qitish masalalari yangicha hal qilindi. 1986 yildan e'tiboran bolalar 6 yoshdan boshlab o'qitila boshlandi, maktabda o'qitish muddati esa 11 yilgacha ko'paytirildi. Shunday qayta qurish 1—2-sinflarda “Atrof olam bilan tanishtirish” nomli yangi o'quv predmetini kiritish imkoniyatini berdi, u 3-4-sinflarda “Tabiatshunoslik” predmetiga o'tadi.

Kursni o'rganish ikki yo'nalishda olib boriladi. Birinchisi, bolalarni odamlarning ijtimoiy hayoti va mehnati bilan tanishtirishni, xulq-atvor madaniyatini tarbiyalashni nazarda tutadi. Ikkinchisida, tabiat bilan bevosita muloqotda uning bilan tanishtirish, tabiat obyektlari va hodisalari to'g'risida tasavvurlar shakllantirish, tabiatga mas'uliyat bilan munosabatda bo'lishni, tabiatdagi xulq-atvor madaniyatini tarbiyalash, tabiat muhofazasida baholi qudrat faoliyat tashkil qilinishi mo'ljallanadi. Tabiat bilan tanishtirish yekskursiyalarda, o'quv sayrlarida, amaliy ishlarda kuzatishlar o'tkazish asosida amalga oshiriladi.

“Atrof olam bilan tanishtirish” predmeti boshlang'ich maktabning boshqa predmetlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Tabiat va jamiyat hayotini, kishilar mehnatini kuzatish ona tili va rus tili, mehnat ta'limi, tasviriy faoliyat, matematika kabi predmetlarning o'quv materialini yaxshiroq tushunib olishga yordam beradi. Bu darslarda, atrof olam bilan tanishtirish bo'yicha mashg'ulotlarda tabiat to'g'risida o'quvchilar oladigan tasavvurlar kengaytiriladi, boyitiladi, katta amaliy yo'nalishga yega bo'ladi.

“Atrof olam bilan tanishtirish” kursining davomi hisoblangan “Tabiatshunoslik” o'z ichiga tabiat fanlarining har xil sohalarini oladi. 3-4-sinflarda tabiatshunoslikni o'rganish jonsiz tabiat bilan jonli tabiat bir butunlikni tashkil qilishi, shuning uchun ham ular o'zaro bog'liq ekanligi to'g'risidagi tasavvur va tushunchalarni izchillik bilan rivojlantirishni nazarda tutadi.

Tabiatshunoslik fanlari taraqqiyotida Markaziy Osiyolik olimlarning xizmatlari. Markaziy Osiyoda yashab o'z asarlari bilan tabiiy fanlar rivojiga barakali hissa qo'shgan olimlarning ishlari va bizgacha yetib kelgan asarlari tabiiyot tarixini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Beruniy 973 yilda Xorazmning Qiyot (hozirgi Beruniy) tug'ilgan. Beruniyning bizga 152 ta kitobi ma'lum bo'lib, ulardan faqat 27 tasigina bizgacha yetib kelgan. Beruniyning o'sha davrda yaratgan buyuk kashfiyotlaridan biri Yerning shar shaklida ekanligini ko'rsatish uchun globus ixtiro etganligidir.

Beruniy asarlariga tabiatga oid juda ko'p ma'lumotlar kiritilgan. Masalan, O'rta Osiyo, Hindiston, Afg'onistondagi qazilma boyliklar (dorivor o'simliklar, hayvonlar), ularning foydali xususiyatlari haqida ma'lumotlar berilgan. Beruniyning ilmiy qarashlari “Minerologiya”, “Hindiston”, “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Geodeziya” kabi asarlarida keng yoritilgan.

“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida Beruniy Eron shimolida keng tarqalgan tropik o'simliklar va hayvonot olamini ta'riflaydi. Beruniyning “Kitob as-Saydana-fit-tibbi” (Tabiatda dorishunoslik) asari 1927 yilda Turkiyaning Bursa shahridagi kutubxonalarning biridan topilgan.

Bu kitobda 250 dan ortiq tabib, dorishunos, kimyogar, tabiatshunos, tarixchi, faylasuf, sayyohlar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Beruniyning tabiiy va sun'iy tanlanish haqidagi fikrlari ham diqqatga sazovordir. Agar Yer yuzini bir xil daraxt yoki bir xil hayvon butunlay qoplab olsa, bu holda hayvon va daraxtlarning ko'payishiga, daraxtning o'sishiga o'rin qolmaydi, deb ta'kidlagan edi. Beruniyning "Tabiatda dorishunoslik" asarida dorivor o'simliklar tasnifi ham berilgan. Beruniy o'z asarlari bilan tabiat fani tarixiga asos solgan.

Abu Ali ibn Sino (980-1037) tabiiyot fanining turli sohalarida ijod qilgan. Ibn Sino tabobat ilmidan tashqari, tibbiyot sohasidagi ishlari, jumladan, "Mexanika", "Fizika" nomli kitoblari tabiiyot fanining rivojlanishida muhim o'rin tutgan. Kitoblarida harakat, kuch, atmosfera bosimi, ob-havo, qor, yomg'ir, do'l, issiqlikning tabiati, yashin va uning turlari, momaqaldiroq hodisasi, tovush, yorug'lik, Quyosh va Oy tutilishi, ko'zning ko'rish sabablari, olamdagi o'simliklar va ularning ahamiyati haqida bayon qilgan.

Ibn Sino dunyoga mashhur "Tib qonunlari" asarini yozgan. Mazkur asar 5 ta kitobdan iborat. Ularda odam tanasi a'zolarining tuzilishi, vazifalari, turli kasalliklar, ularning kelib chiqish sabablari, oddiy va murakkab dorilar, ularni tayyorlash va bu dorilarning tana a'zolariga ko'rsatadigan ta'siri haqida ma'lumotlar keltirilgan. Olim odamdagi ba'zi kasalliklar (chechak, vabo, sil) ko'zga ko'rinmas organizmlar orqali paydo bo'lishini e'tirof etdi. Inson salomatligini yaxshilashda to'g'ri ovqatlanish, tana a'zolarini chiniqtirish muhim ahamiyatga ega ekanligini aytadi. Uning fikricha, Yer asta-sekin o'zgaradi, dengiz va daryolar vaqti kelib o'z o'rnini quruqlikka bo'shatadi. Shu tufayli ko'pgina kishilar suvda yashaydigan hayvonlarni, chunonchi, chig'anoq qoldiqlarini quruqlikda uchratadilar. Ibn Sino o'simlik, hayvon va odamda o'xshashliklar mavjudligi, ularning oziqlanishi, ko'payishi, o'sishi haqida to'xtalib o'tadi.

JAYHONIY. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Nasr Jayhoniyy 870-yili Buxoroda tug'ilgan. Jayhoniyy o'z davrining yirik davlat arbobi bo'libgina qolmay, balki o'ta o'qimishli va bilimdon olim ham edi.

U vazir lavozimidan foydalanib, dunyoning turli mamlakatlariga sayohatchilarni yubordi. Ular to'plagan ilmiy materiallarni chuqur tahlil qildi va mazkur tadqiqotlari asosida asarlar yozdi.

Olimning dunyoviy fanlar to'g'risida yozgan kitoblari juda ko'p bo'lib, ulardan Maqsudiy, Beruniy, ibn Rustam al-Bakriy kabi olimlar o'z asarlarida foydalanganlar.

Jayhoniyning "Kitob-al-masolik val mamolik" ("Yillar va mamlakatlar haqida kitob") asari 911-922- yillarda yozilgan. Beruniy o'zining "Mineralogiya" asarida Jayhoniyy asarlarida ko'rsatilgan minerallardan, ular haqidagi ma'lumotlardan keng foydalangan.

Jayhoniyy o'z asarlarida O'rta Osiyo, Hindiston, Xitoy, Sanardey (Seylon), Eron qazilma boyliklari, tabiiy resurslari haqida mukammal ma'lumotlar keltirgan.

Jayhoniyning asarlarida Xuroson o'lkasida yashovchi xalqlarning geografik chegaralari, ularning ijtimoiy va ma'muriy faoliyati, hunarmandchiligi, tabiiy resurslarini ifodalovchi materiallar keltirilgan. Mahalliy dorivor o'simliklar va hayvonlardan olinadigan dorivornlarning tabiatdagi o'rnini haqida ma'lumotlar berilgan. Jayhoniyy nafaqat davlat arbobi, shu bilan birga mashhur tabib ham bo'lgan. U xonaki hayvonlar: it, mushuk, odam organizmida yashaydigan gijja, chuvalchanglarni yuqumli kasallik tashib yuruvchilar deb bilgan va ularga qarshi kurashish choralarini ko'rgan.

Jayhoniyy qoldirgan boy ilmiy meros O'rta Osiyo va qo'shni mamlakatlarning tabiati, o'simlik hamda hayvonot dunyosi, tabiiy resurslari, qishloq xo'jaligi va tibbiyot fanlari tarixini o'rganishda alohida ahamiyatga yega.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR. Bobur tadbirkor podsho bo'libgina qolmay, o'ta ma'lumotli olim ham edi. Uning "Boburnoma" asari tabiatshunoslikning rivojlanishida katta ahamiyatga ega.

"Boburnoma" O'rta Osiyo, Afg'oniston va Hindistonning tabiiy geografik joylashishi, o'simliklar va hayvonot dunyosi haqidagi biografik asar hamdir. Asarda Bobur har bir joyning xarakterli jihatlari, o'simlik va u yerda tarqalgan hayvonlarning o'ziga xos xususiyatlari haqida qimmatli materiallarni bayon etgan. Bobur asarlaridagi tabiat maskanlari va hodisalari, o'lkaga oid geografik ma'lumotlar, tasvirlar tabiatni o'rganishda yosh tabiatshunoslar va o'lkashunoslarga dastur bo'lib xizmat qiladi.

MIRZO ULUG'BEK. O'rta Osiyoning buyuk olimlari dunyoning tuzilishi to'g'risida to'g'ri fikr yuritgan ajoyib mutafakkirlar bo'libgina qolmay, balki mashhur mushohadachilar ham edi. XV asrda Ulug'bek boshliq samarqandlik astronomlarning osmon jismlarini kuzatish sohasidagi ilmiy ishlari, ayniqsa, mashhurdir.

Samarqand hokimi Mirzo Ulug'bek astronom olim, ma'rifatparvar davlat arbobi ham edi. U o'z mamlakatida fanni rivojlantirish uchun doimo g'amxo'rlik qilib keldi. Ulug'bek Samarqandga turli joylardan olimlar olib kelib, ularning ishlashi uchun sharoit yaratdi.

U Samarqandda ulkan rasadxona qurdirdi. Tepalikdagi ana shu rasadxona binosi ulug'vorligi bilan zamondoshlarini hayratda qoldirgan. Rasadxona o'sha zamondagi yeng yaxshi, mukammal asboblardan jihozlangan edi.

Ulug'bek hokim bo'lish bilan birga O'rta Osiyo xalqlari ilm-fani va madaniyatini dunyo fanining oldingi safiga olib chiqqan olimlardan biridir. Uning rasadxonasida "Yangi astronomiya jadvallari" ("Zij Ko'ragoniy") yaratiladi. Ulug'bek "Zij Ko'ragoniy" asari bilan butun dunyoda samoviy jismlarni tadqiq etuvchi olim sifatida shuhrat topdi.

Ulug'bek omma orasida ma'rifat tarqatish to'g'risida ko'p qayg'urgan. U Samarqand va boshqa shaharlarda o'quv yurtlari madrasalar ochgan.

Ulug'bek singari ko'plab o'zbek olimlarining asarlari dunyoga keng tarqalib, astronomiya, geografiya kabi fanlar taraqqiyotiga ulkan hissa bo'lib qo'shildi.

ABU ALI IBN SINO. Buyuk olim Abu Ali ibn Sino (980-1037) ham Beruniy kabi tabiiyot fanining turli sohalarida ijod qilgan.

Olim odamdagi ba'zi kasalliklar (chechak, vabo, sil) ko'zga ko'rinmas organizmlar orqali paydo bo'lishini e'tirof etadi. Inson salomatligini yaxshilashda to'g'ri ovqatlanish, tana a'zolarini chiniqtirish muhim ahamiyatga ega ekanligini aytadi. Uning fikricha, Yer asta-sekin o'zgaradi, dengiz va daryolar vaqti kelib o'z o'rmini quruqlikka bo'shatadi. Shu tufayli ko'pgina kishilar suvda yashaydigan hayvonlarni, chunonchi, chig'anoq qoldiqlarini quruqlikda uchratadilar. Ibn Sino o'simlik, hayvon va odamda o'xshashliklar mavjudligi, ularning oziqlanishi, ko'payishi, o'sishi haqida to'xtalib o'tadi.

Shunday qilib, O'rta Osiyoda tabiat fanlarining rivojlanishida buyuk qomusiy olimlarning bajargan ishlari va bizgacha yetib kelgan asarlari tabiiyot tarixini o'rganishda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Abu Nasr Forobiy o'z zamonasining yirik tibbiyot nazariyotchisi edi. U bu sohada o'nlab ilmiy asarlar yaratdi. Asarlarining umumiy miqdori 160 dan ortiq bo'lib, bizgacha 40 ga yaqinigina yetib kelgan. Ular astronomiya, falsafa, tarix, mantiq, psixologiya, musiqa, tabiatshunoslik, tibbiyot, kimyo sohalarini qamrab oladi.

Yulduzlar haqidagi kitobida osmon jismlari bilan Yerdagi hodisalar o'rtasida tabiiy bog'lanishlar borligini bayon qilgan. Jumladan, Quyosh issiqligi ta'siridagi bug'lanishlar bulut va yomg'ir paydo bo'lishiga sabab bo'lishini aytgan.

Oy tutilishi Yerning Quyosh bilan Oy o'rtasiga tushib qolishiga bog'liqligini ko'rsatgan. Tabiiyot sohasidagi ijodiy ishlari koinot sirlaridan tashqari issiqlik, yorug'lik va tovush hodisalarini o'rganishga ham bag'ishlangan.

Forobiy inson organizmi, uning faoliyatining bir butun va yaxlit tizimdan iboratligini, kasalliklar asosan ovqatlanishning buzilishi bilan bog'liqligini ko'rsatib o'tdi. Forobiy Yevropa olimlari, xususan rus fiziologi Sechenovdan 1000 yillar avval fiziologiya fanining fundamental asosi bo'lgan birlamchi va ikkilamchi signal sistemasining rivojiga ilmiy asos solgan. Forobiy o'z asarlarida sun'iy (inson yordamida) turlarning vujudga kelishi singari tabiiy ravishda (inson aralashuvisiz) o'simlik va hayvon turlarining paydo bo'lishini ham dunyoda birinchi bo'lib ta'riflab, bu masalani Ch.Darvindan 1000 yil avval hal qilgan edi.

Al-Xorazmiy dunyodagi birinchi geografik xaritani tuzishga katta hissa qo'shgan. Xorazmiy astronomiya sohasida ham ko'p ishlar qilgan. U kuzatishlar asosida hindlarning astronomiya jadvallarini har tomonlama tahlil qilib, yangi astronomik jadvallar tuzdi. Uning rahbarligida Yer kurrasining kattaligini aniqlash maqsadida Yer meridianining bir gradusi o'lchab chiqilgan. Xorazmiyning astronomiyaga oid asari, Yerning o'lchamii haqidagi fikrlari, O'rta Sharq, Yevropada astronomiya fanining rivojiga ulkan hissa bo'lib qo'shilgan. Mashhur o'zbek matematigi Muso al-Xorazmiy hozirgi zamon algebra fani va "Algoritim" sohasining "otasi" hisoblanadi. "Algebra" "Al jabr" asaridan, "Algoritim" esa uning nomi al-Xorazmiydan olingan.

Abu Hanifa Dinavariy (Ahmad ibn Dovud)-tarixchi, tilshunos, botanik olim. Uning bizgacha yetib kelgan tarixiy asari "Kitob axborit-tivol" dir. Dinavariyning "Kitob fin-nabot" (O'simlik haqida kitob) nomli mashhur asari uzoq vaqtlargacha sharq botanik va tabiblari uchun qo'llanma bo'lgan. Asarning bizgacha yetib kelgan ba'zi bir qismlari B.Levin tomonidan ingliz tiliga tarjima qilinib, nashr etilgan. Abjad tartibida yozilgan bu kitobda 482 xil o'simlikning xususiyati bayon qilingan. Muallif har bir o'simlikni ta'riflashda o'z zamonasi shoirlarining shu o'simlik haqidagi she'rlaridan namunalar keltirgan.

Tabiatshunoslik metodikasining rivojlanish tarixi va hozirgi holati. O'zbek tilida tabiatshunoslik bo'yicha birinchi tarjima adabiyoti 1919 yilda vujudga keldi. Bular "Boshlang'ich jug'rofiya" (A.A.Kruber kitobining ruschadan tarjimasi), "Turkiston" (A.A.Kruberning "Rossiya jug'rofiyasidan ocherklar" kitobining ruschadan tarjimasi), T.N.Qori Niyoziyning o'qituvchilar uchun qo'llanma hisoblangan "Tabiatning parchasi" va boshqalar edi.

1927-1929 yillarda birinchi bosqich maktablar uchun o'lkashunoslik darsliklari – "Kichik turkistonlik" va "Bizning o'lka", "Tabiiyot bo'yicha o'qish kitobi" va boshqa mahalliy tabiatshunoslik materiallari asosida tuzilgan darsliklar nashr qilindi.

1948 yildan e'tiboran boshlang'ich sinflarda tabiiyotni o'qitish sistemasi o'zgardi. 1—3- sinflarda tabiatshunoslik materiali izohli o'qish darslarida o'rganila boshlandi. Tabiiyot esa o'quv predmeti sifatida 4-sinfga kiritildi va o'zbek tiliga tarjima qilingan sobiq RSFSR dasturlari bo'yicha mahalliy materiallardan foydalanib o'rganildi. 1948 yili Ye.M.Belskaya shu dasturga asoslanib "Rus tilida o'qish olib boriladigan O'zbekiston maktablarining 1-4 sinflari uchun dastur" metodik yo'l-yo'riqlar yaratdi, unda 1-3-sinf o'quvchilari bilan darslar va darsdan tashqari vaqtlarda (o'qituvchi rahbarligida) kuzatish va tajribalar o'tkazilishiga alohida e'tibor berildi.

1960 yildan barcha sinflarda o'qitish politexnizasiyalashtirilishi munosabati bilan yangi dasturlar joriy qilindi. Bunda 3-4 sinflardagi tabiatshunoslik darslari mehnat darslari bilan almashtirildi. Tabiatshunoslik faqat 4- sinfda qoldirildi, buning uchun 1961 yili O'zbekistonning tabiiy sharoitlari, o'simlik va hayvonot dunyosining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi "Tabiatshunoslik" darsligi (Ye.M.Belskaya va b.) yaratildi.

70-yillarda O'zbekiston maktablarining yangi o'quv rejasi va dasturlariga o'tilishi munosabati bilan 2—3 sinflarda "Tabiatshunoslik" predmeti kiritildi, uni o'rganishga rus tilida o'qish olib boriladigan sinflarda 35 va 70 soatdan, o'qish o'zbek tilida olib boriladigan sinflarda 35 soatdan vaqt ajratildi.

1972 yili Ye.M.Belskaya tahriri ostida rus va o'zbek tillarida 2-sinf uchun "Tabiatshunoslik" darsligi nashr qilindi. Bu darslik uch yillik boshlang'ich maktab dasturi bo'yicha qo'llaniladi. U qiziqarli mazmuni bilan farq qiladi, ikkinchi sinf o'quvchilarining yosh xususiyatini hisobga olgan holda tuzilgan va O'zbekiston o'simliklari va hayvonot dunyosining tipik xususiyatlarini aks ettiradi.

1974 yili 3-sinf uchun "Tabiatshunoslik" darsligi nashr qilindi. Unda "O'lkamizning tabiati" mavzusiga katta e'tibor berildi. Uni o'rganish 2-sinfda o'tkazilgan kuzatishlarni umumlashtirish bilan boshlanar va tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda olib borilar edi. Topshiriqlar O'zbekistonning jonsiz tabiati obyektlari, o'simliklari va hayvonlarini kuzatishlardan maksimal foydalanishni nazarda tutgan. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalar nashr qilingan bo'lib, ularda tabiatshunoslik kursi metodikasi 2—3 sinflardagi shu predmetni o'rganish xususiyatlari hisobga olingan holda bayon qilingan. 1986 yildan boshlab to'rt yillik boshlang'ich ta'limga o'tish munosabati bilan boshlang'ich maktab uchun, atrof olam bilan tanishtirish va tabiatshunoslik bo'yicha dasturlar hamda "Atrof olam bilan tanishtirish" va "Tabiatshunoslik" kurslari bo'yicha o'quv-metodik komplekslar (darsliklar, metodik qo'llanmalar, kuzatishlar kundaligi) nashr qilindi. Tabiatshunoslik sikli bo'yicha o'quv kompleksi sistemaliligi, mazmunni rivojlantirilishi, sinfdan-sinfga o'tgan sari asta-sekin chuqurlashtirib va kengaytirib borilishi, tuzilishga yagona yondashish, strukturaning vorisligi bilan taminlagan.

1.2. Yordamchi maktablarda tabiatshunoslik darslarini o'qitishning korreksion tarbiyaviy ahamiyati.

“Korreksiya”(tuzatish) so'zining mohiyati mazmuni haqidagi pedagogik asarlarda qator tushunchalar berilgan. Defektologiyaa lug'atida “aqli zaif bolalardagi ruhiy va jismoniy kamchiliklarni tuzatish,oldini olishga,yumshatishga qaratilgan pedagogik ishlar sistemasidir”,deb ko'rsatiladi. Italiyalik defektolog M.Mantessore (1870-1952) aqli zaiflikda asosiy ishni sezgilarni tarbiyalashdan boshlash lozim deb ko'rsatadi.Uning fikricha,maxsus mashqlar orqali bolalar sezgilarini rivojlantirish asosida tafakkurni rivojlantirish mumkin ekan.

Uning fikrini davom ettirib,Belgiyalik O.Dekroli (1871-1933) tuzatish ishlarini 3 ta bo'g'inga ajratgan:1 bo'g'inda sezgilarga ta'sir etish, 2 bo'g'inda tafakkurga ta'sir etish va 3 bo'g'inda esa xarakatlarga ta'sir etish.

M.Mantesse Dekroli qarashlarini cheklaganligini (ular ruxiyatining bir butunligini to'la tushunmadilar), rus defektolgi A.N.Graborovning pedagogik tizimida birmuncha yuqori bosqichga ko'tarildi.Bu tizim asosida aqli zaif o'quvchilarda ba'zan turli analizatorlar buzilgan bo'ladi Bizga ma'lumki har qanday bilish jonli mushoxodadan boshlanadi.Jonli mushoxoda deganda daslabki ma'lumotni eshitishimiz,ko'rishimiz,teri sezgilari ishtirokida qabul qilishimiz tushuniladi.Qabul qilingan ma'lumot bosh miyada qayta ishlanib undan amalliyotga,amalga yo'naltiriladi.

Aqli zaif bolalarda eng katta nuqson,tafakkur jarayonlarining buzulganligi sababli,butun to'g'irlash,yumshatish,kareksion-tuzatish ishlari tabiatshunoslik darslarida ham amalga oshiriladi .

Har bir insonning yangi bilimlar tajribalar, oldin egallangan bilimlar tizimiga albatta ta'sirt etadi. Yangi bilim, ma'lumotlarni egallab borish asosida bolalarda atrof muhitga , boshqa kishilarga munosabati o'zgarib boradi.

Shu taxlitda, ta'lim jarayonida aqli zaif bolalarda uni o'rab olgan muhitga munosabatning o'sishi (dinamik) tuzimi tarkib topib boradi. Ta'limda aqli zaif o'quvchilarni kuzatishiga asosiy g'oyani aniqlashga taxlil etishga o'rgatib borishimiz lozim. Bu narsa bolalarda tevarak atrof, muhit haqida ongli bilimlarni shakllantirishga yordam beradi.

Yordamchi maktab o'quvchilarida tafakkurning asosiy kamchiligi umumlashtirishning zaifligidir. Tafakkurning yuzakiligi, bo'shligi, sekin harakati, torligi tanqidiy emasligi, mustaqil emasligi, maqsadga muvofiqligini buzilishi ham uchray turadi. Tabiatshunoslik ta'limida ushbu kamchiliklarni korrupsiyalab (to'g'irlab borishdan) iboratdir.

Tabiatshunoslik darslarida aqli zaif o'quvchilar diqqatining tarqoqligi ham xarakterli xisoblanadi. Yuqorida aytib o'tilgan barcha nuqsonlar yangi bilimlarni egallashda, qiyinchilikka duch kelganda ayniqsa yaqqol namayon bo'ladi. Shu sababli ta'lim jarayonlarida ularning individual xususiyatlarini hisobga olib ularga nisbatan alohida-alohida muomola ishlarini amalga oshirish kerak.

Ta'lim jarayonida tuzatish tarbiyalash ishlarini amalga oshirish natijasida yuqorida aytib o'tilgan bilish faoliyatlaridagi nuqsonlarni bartaraf etish mumkin. O'qituvchi ishining samaradorligi har bir o'quvchi ishining samaradorligi bilan o'lchanadi. Yordamchi maktablarda ta'lim tarbiyalovchi xarakterda bulishi kerak. Didaktikaning asosiy talabi shundan iborat. Didaktik prinsiplarining butun sistemasi birlashib asosiy vazifa-bolalarni atroflicha tarbiyalashning kankret yo'lini amalga oshirishga yo'naltiradi.

Yordamchi maktab ta'limida didaktik prinsiplar maktab o'quvchilarini mehnatga to'g'ri munosabatini, o'quv va mehnat jamoasida fe'l-atvor malakasini tarbiyalash va shuning asosida vatan oldidagi o'z burchining zaruriy tasavvurlarini vujudga keltirish mumkinligini ishonchli ravishda bajaradi.

Tabiatshunoslik darslarida aqli zaif o'quvchilarni jamoa xo'jaliklariga yordam berish ishlarida, hosilni yig'ishtirib olishga, chorva mollarini boqish, parvarish qilish, poliz ekinlarini yig'ishtirib olishga yordam beradilar, shu tariqa aqli zaif o'quvchilarning mehnatga bo'lgan munosabati rivojlanadi.

Tabiatshunoslik darslarida o'tiladigan darslarning ko'p qismi amaliy, sinfdan tashqari va darsdan tashqari ishlarda olib boriladi. Aqli zaif o'quvchilar o'qituvchi topshirig'i bilan, masalan, "qushlar bayrami, hosil bayrami" kabi xar-xil darsga oid bo'lgan kechalarda ishtirok etadilar.

Tabiatga ekskursiya, bog' sayliga o'tkaziladigan ekskursiyalar, hayvonat olamiga aqli zaif o'quvchilarda emosional zavq bag'ishlaydi. Ularda go'zallikni xis qilishga, tabiat go'zalligini ta'riflash orqali o'qituvchi o'quvchilarga axloq, go'zallik xislarini tarbiyalaydilar. Yordamchi maktab tabiatshunoslik ta'limida aqli zaif o'quvchilarga jonli va jonsiz tabiat uning ko'rinishlari, ijtimoiy foydali mehnatga o'rgatish orqali kelajakda jamiyatda o'z o'rnini topa olishi, tabiatga mexir, muxabbat uyg'otish orqali ona vatanini sevishtirish, uning tabiatini ardoqlashga, malakalar hosil qilinib, bilish faoliyati o'quv jarayonida korreksilanib boriladi.

Jismoniy va ruhiy tamondan rivojlanishda kamchiligi bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish orqali ulardagi psixofizik kamchiliklar, bilish faoliyati tuzatiladi.

Yuqori sinflardagi jonsiz tabiat (5-sinf), o'simliklar olami (6-sinf), hayvonat olami (7-sinf), Odam (8-sinf)dagi ta'lim tarbiya, aqli zaif o'quvchilarni tabiatga bo'lgan munosabatini va undagi o'zgarishlar, mehnat qilish ayniqsa o'quvchilarni ijtimoiy foydali mehnatga tarbiyalash muxim vazifani kasb etadi. Aqli zaif o'quvchilarni bilish faoliyatlarini tabiatshunoslik darslarida korreksialash-tuzatish bo'yicha ko'pchilik Vatandosh olimlar, masalan:

L.V.Rumyanseva “Yordamchi maktab 5-sinf jonsiz tabiat” darslarida amaliy topshiriqlar bajarishning ahamiyati A.V. Usvayskaya “Boshlang’ich sinflarda tabiatni o’rganish” 1980-yil G.F. Yablokova “Tabiatshunoslik darslarida aqli zaif o’quvchilarga tabiat haqidagi bilimlar berishni usullari” A.G. Grigoryanis “Tabiatshunoslik” “Atrofimizdagi olam”, Sayidazizovning “Nutq o’stirish” kabi adabiyotlari mavjud.

Lekin yordamchi maktab tabiatshunoslik darslarining korreksion ta’limiy va tarbiyaviy vazifalari aloxida mavzu bo’lib, adabiyotlarda o’rin olmagan.

Aqli zaif o’quvchilar o’zi yashab turgan joy tabiatni olamni yaratilishi materialni birlamchiligini bilishi ularni bilim faoliyatini jonli va jonsiz tabiatni idrok etishi sezgilari orqali sezish xotira orqali eslab qolish nutq orqali tafakkurni rivojlantirish, mehnat orqali mustaqil hayotga tayyorlash etik va ekalogik tarbiya orqali go’zallikni xis qilishga, sevishga uni ardoqlashga tabiatni saqlab qolishi, Ona vatanni sevishga, tabiat go’zalligini boyitishga bo’lgan bunday, ishonchli maqsad ,vazifalar, faqat tabiatshunoslik darslarida aqli zaif o’quvchilarini bilish faoliyatini tuzatish (korreksiyalash) ta’lim-tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Shu maqsadda bitiruv ishimizning mavzusini “Yordamchi maktablarda tabiatshunoslikni o’qitishning ta’limiy -tarbiyaviy va korreksion ahamiyati” deb nomladik.

1.3. Tabiatshunoslik darslarida ta'lim – tarbiya jarayoning o'zaro bog'liqligi.

M.N. Skatkin o'z tadqiqotlarida tabiatshunoslik bo'yicha sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish metodikasi hamda tabiatni o'rganish bo'yicha mashg'ulotlarda bolalarning bilish faoliyatini faollashtirish masalalariga katta e'tibor berdi.

Tabiatda o'quv tajriba uchastkasida va sinfdan kuzatish va tajribalar o'tkazish zarurligi to'g'risida P.A. Zavitayevning "Boshlang'ich maktabda tabiat bo'yicha kuzatish va tajribalar" (Nablyudeniya i opete po yestestvoznaniyu v nachalnoy shkole) nomli kitobida xam fikr yuritiladi. Unda o'rganilayotgan har qanday hodisa haqidagi tasavvurlarni kitoblardan material o'qish bilan to'ldirish hamda mustahkamlashni talab qiluvchi kuzatish va tajribalarning aniq metodikasi bayon qilinadi.

Ekskursiyalar predmetli darslar va kuzatishlar o'tkazish metodikasini yorituvchi boshqa nashrlar ham vujudga keldi. Jumladan A.K. Verzinaning ishi nashr qilindi, unda 1-4- sinflarda ob-havoni kuzatish sistemasi taklif qilingan kuzatish natijalaridan ona tili va rus tili, arifmetika jug'rofiya va boshqa darslarida maktab o'quv – tajriba uchastkasidagi amaliy mashg'ulotlar jarayonida foydalanish uslublari keltirilgan.

1959-yildan boshlab har yili 1-4-sinf o'quvchilari uchun "Kuzatish kundaliklari" (Dnevnik nablyudeniya) nashr qilinmoqda uning muallifi V.A. Valezianova o'quvchilarning qishloq xo'jaligida odamning mehnat faoliyatini muntazam ravishda kuzatishlarini tashkil qilishda o'qituvchiga yordam berish vazifasini qo'yadi.

Tabiat metodikasiga mashhur metodist S.A. Pavlovich katta xissa qo'shdi, uning ishlari boshlang'ich maktabda tabiat darslarini metodik jihatdan to'g'ri tashkil qilishga yordam berdi.

Uning “boshlang’ich maktabda tabiat o’qitish amaliyoti” (Praktika prepodavaniya yeststvoznaniya v nachalnoy shkole) “Jonsiz tabiat to’g’risidagi tushunchani qanday o’qitish kerak” (Kak prepodovat nachalniye znaniya o nejivoy prirode) “Tabitshunoslik bo’yicha kitob”. “Tabiatning asoslari va metodikasi” nomli ishlari ancha mashxurdir. S.A. Pavlovichning tabiat va tabiatshunoslik darslarini o’quv qurollari bilan jixozlash to’g’risidagi kitoblarni xozirgi vaqtda xam o’z ahamiyatini yo’qotgani yo’q.

Vasiliy Alekchsandrovich Suxomlinskiy o’zining “Yuragimni bolalarga beraman” (Serdse otdano detyat) nomli kitobida bolalarni tabiatni bilib olishga tabiatning o’zida o’rgatishni ularda xissiyot va xayolni rivojlantirishni taklif qildi. U o’qituvchi bolalarning ruxiy dunyosini bilishi ularning aqliy rivojlanishiga bilimga qiziqish uyg’onishiga xar jixatdan yordam berish kerak deb xisoblanadi. Suxomlinskiy tafakkurni rivojlantiruvchi birinchi darsni tabiat quchog’ida o’tkazilishini astoyidil tavsiya qildi. U bolalarni olti yoshdan maktabga o’qishga tayyorlashni boshlovchilardan biri edi. Uning bolalarni o’qitishga tayyorlashda oila bilan maktabning aloqasiga mo’ljallab ishlab chiqqan sistemasi xozirgi zamon pedagogikasining katta yutug’idir.

O’rta umuta’lim maktabi isloxotidan keyin tabiatshunoslik 2 va 3-sinflarda mustaqil predmet sifatida o’qitila boshladi va faqat 1-sinfda tabiatshunoslik materialidan o’qish va nutqni rivojlantirish darslarida foydalaniladi.

Umumta’lim va xunar maktablarini islox qilishning asosiy yo’nalishlari munosabati bilan tabiatshunoslikni o’qitish masalalari yangicha hal qilindi. 1986-yildan e’tiboran bolalar 6 yoshdan o’qitila boshlandi, maktabda o’qitish muddati esa 11 yilgacha ko’paytirildi. Shunday qayta qurish 1-2- sinflarda “Atrof olam bilan tanishtirish” nomli yangi o’quv predmetini kiritish imkoniyatini berdi u 3-4-sinflarda “Tabiatshunoslik” predmetiga o’tadi.

Kursni o’rganish ikki yo’nalishda olib boriladi. Birinchisi: bolalarni odamlarning ijtimoiy hayoti va mehnati bilan tanishtirishni xulq-atvorni tarbiyalashni nazarda tutadi.

Ikkinchisida tabiat bilan bevosita muloqotda uning bilan tanishtirish tabiat obektlari va hodisalari to'g'risida tasavvurlar shakllantirish tabiatga masuliyat bilan munosabatda bo'lishni, tabiatdagi xulq atvor madaniyatini tarbiyalash, tabiat muxofazasida baxoli qudrat faoliyat tashkil qilinishi mo'ljallanadi deb yozadi. Tabiat bilan tanishtirish ekskursiyalarida o'quv saylarida amaliy ishlarda kuzatishlar o'tkazish asosida amalga oshiriladi. Tabiatni unda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni kunda kuzatib borilishini tashkil qilish katta ahamiyatga ega. Bolalarning amaliy faoliyati (ijtimoiy foydali ishlar mehnat o'yin) jarayonida odam mehnatini o'rganish bu ikki yo'nalishni bog'lovchi zvenodir.

Birinchi va ikkinchi sinf kursining mazmuni "bizning uy va jonajon tabiat", "bizning maktab (bolalar bog'chasi) va jonajon tabiat" "Jonajon mamlakat" temalarida ochib beriladi. Bu temalar asta sekin yaqindan uzoqqa borish bilan atrofimizdagi olam to'g'risidagi tasavvurlarni to'plash boyitish va sistemalashtirishga imkon beradi.

"Atrof olam bilan tanishtirish" predmeti boshlang'ich maktabning boshqa predmetlari bilan chambarchas bog'liqdir. Tabiat va jamiyat hayotini ona tili va rus tili, mehnat ta'limi, tasviriy faoliyat, matematika kabi fanlarning o'quv materialini yaxshiroq tushunib olishga yordam beradi. Bu darslarda atrof olam bilan tanishtirish bo'yicha mashg'ulotlarda tabiat to'g'risida o'quvchilar oladigan tasavvurlar kengaytiriladi boyitiladi, katta amaliy yo'nalishga ega bo'ladi.

"Atrof olam bilan tanishtirish" kursining davomi xisoblangan "Tabiatshunoslik" o'z ichiga tabiat fanlarining xar xil soxalarini oladi. 3-4-sinflarda tabiatshunoslikni o'rganish jonsiz tabiat bilan jonli tabiat bir butunlikni tashkil qilishi shuning uchun xam ular o'zaro bog'liq ekanligi to'g'risidagi tasavvur va tushunchalarni izchillik bilan rivojlantirishni nazarda tutadi.

O'zbek tilida tabiatshunoslik bo'yicha birinchi tarjima adabiyoti 1919-yilda vujudga keldi. Bular "Boshlang'ich jug'rofiya" (A.A. Kruber kitobining ruschadan tarjimasi) "Turkiston" (A.A. Kruberning Rossiya jug'rofiyasidan ocherklar kitobining ruschadan tarjimasi) T.N. Qori Niyozning o'qituvchilar uchun qo'llanma xisoblangan "Tabiatning parchasi" va boshqalar edi.

1927-1929-yillarda birinchi bosqich maktablar uchun o'lkashunoslik darsliklari "Kichik turkistonlik" va "Bizning o'lka" "Tabiat bo'yicha o'qish kitobi" va boshqa maxalliy tabiatshunoslik materiali asosida tuzilgan darsliklar nashr qilindi.

1948-yildan e'tiboran boshlang'ich sinflarda tabiatni o'qitish sistemasi o'zgardi.

1-3-sinflarda tabiatshunoslik materiali izoxli o'qish darslarida o'rganila boshlandi. Tabiat esa o'quv predmeti sifatida 4-sinfga kiritildi va o'zbek tiliga tarjima qilingan dasturlari bo'yicha maxalliy materiallardan foydalanilib o'rganildi.

1948-yili E.M. Belskaya shu dasturga asoslanib Rus tilida o'qish olib boriladigan O'zbekiston maktablarining 1-4-sinflari uchun dastur – metodik yo'l-yo'riqlar yaratdi, unda 1-3-sinf o'quvchilari bilan darslar va darsdan tashqari vaqtlarda (o'qituvchi raxbarligida) kuzatish va tajribalar o'tkazilishiga aloxida e'tibor beriladi.

1960-yildan barcha sinflarda o'qitish politexnizatsiyalashtirish munosabati bilan yangi dasturlar joriy qilindi. Bunda 3-4-sinflardagi tabiatshunoslik darslari mehnat darslari bilan almashtirildi. Tabiatshunoslik faqat 4-sinfda qoldirildi buning uchun 1961- yili O'zbekistonning tabiiy sharoitlari o'simlik va hayvonot dunyosining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi "Tabiatshunoslik" darsligi (E.M.Belskaya v.boshqalar.) yaratildi.

1970-yillarda O'zbekiston maktablarining yangi o'quv rejasi va dasturlariga o'tilishi munosabati bilan 2-3- sinflarda "Tabiatshunoslik" predmeti kiritildi uni o'rganishga rus tilida o'qish olib boriladigan sinflarda 35 va 70 soatdan o'qish o'zbek tilida olib boriladigan sinflarda 35 soatdan vaqt ajratildi.

1972-yili E.M. Belskaya taxriri ostida rus va o'zbek tillarida 2-sinf uchun "Tabiatshunoslik" darsligi nashr qilindi. Bu darslik uch yillik boshlang'ich maktab dasturi bo'yicha qo'llaniladi. U qiziqarli mazmuni bilan farq qiladi, 2-sinf o'quvchilarining yosh xususiyatini xisobga olgan xolda tipik xususiyatlarini aks ettiradi.

1974-yili 3-sinf uchun “Tabiatshunoslik” darsligi nashr qilindi. Unda “O’lkamizning tabiati” mavzusiga katta etibor berildi. Uni o’rganish 2-sinfda o’tkazilgan kuzatishlarni umumlashtirish bilan mavsumiy o’zgarishlarni xisobga olgan xolda olib borilar edi. Topshiriqlar O’zbekistonning jonsiz tabiati, o’simliklari va hayvonlarini kuzatishlardan maksimal foydalanishni nazarda tutgan.

O’qituvchilar uchun metodik qo’llanmalar nashr qilingan bo’lib ularda tabiatshunoslik kursi metodikasi 2-3-sinflardagi shu predmetni o’rganish xususiyatlari xisobga olingan xolda bayon qilingan.

1986-yildan boshlab to’rt yillik boshlang’ich ta’limga o’tishi munosabati bilan boshlang’ich maktab uchun atrof olam tanishtirish va tabiatshunoslik bo’yicha dasturlar hamda “Atrof olam bilan tanishtirish” va “Tabiatshunoslik” kurslari bo’yicha o’quv metodik komplekslar (darsliklar metodik qo’llanmalar kuzatishlar kundaligi) nashr qilindi. Tabiatshunoslik sikli bo’yicha o’quv kompleksi sitemaliligi mazmunni rivojlantirilishi sinfdan-sinfga o’tgan sari asta-sekin chuqurlashtirilib va kengaytirib borilishi tuzilishga yagona darslik strukturaning vorisligi bilan taminlangan.

Maxsus maktablar uchun 1991-yil Mustaqillikka erishgach yangi dastur va darsliklar ishlab chiqilgan.

Bolalarning atrofimizdagi olamni muntazam o’rganib borishlariga asoslanib kichik yoshdagi o’quvchilarga tabiat to’g’risida o’z joyi va barcha mamlakatning tabiiy boyliklaridan unumli foydalanish haqidagi tasavvurlarni shakllantirish kerak. Bolalarga odamlar mehnati atrof tabiat bilan chambarchas bog’liq ekanligini ko’rsatish g’oyat muximdir.

Shu talablarga ko’ra maxsus maktabda kichik yoshdagi o’quvchilarga:

- Jonli va jonsiz tabiat to’g’risida aniq bilimlar berish ularning o’zaro bog’liqligini ochib berish;
- Odam organizimi va salomatligini saqlash to’g’risida ma’lumotlar berish;
- Tabiatda kuzatishlar o’tkazish, ko’nikmalari bilan qurollantirish;
- Jonajon tabiatga muxabbat uni muxofaza qilishga intiltishni tarbiyalash.

Tabiatshunoslikni o'qitish jarayonida dunyoni ilmiy materialistik tushunish asoslarini shakllantirish uchun tabiatga insonparvarlik munosabatini vatanparvarlikni va go'zallikni tushunishni tarbiyalash kerak.

Zamonaviy pedagogika ta'lim va tarbiyaga tarbiyalovchi ta'lim deb atalmish yagona jarayonning ikki tomoni deb qaraydi. Ta'limning tarbiyalovchi xarakteri uning mazmuni bilan belgilaydi. Shuning uchun xam tabiatshunoslikni o'qitish o'qituvchiga o'quvchilar tafakkurini ularning ijodiy va bilish faolligini rivojlantirish uchun boy material beradi. Tabiatshunoslik bo'yicha barcha temalar kompleks tarbiya masalalarin aks ettiradi.

O'quvchilarga bilimni bayon qilish metodlari ham tarbiyaviy ahamiyatga ega o'quvchilarning barcha faoliyatlari bilimlarni o'zlashtirish jarayoni bilan bog'liqdir.

Shu munosabat bilan xam tabiatshunoslikni o'qitish o'qituvchi uchun tarbiyaviy ishlarga katta imkoniyatlar beradi. Tabiatshunoslikni o'qitishda og'zaki ko'rgazmali, amaliy va boshqa metodlardan foydalaniladi. Bolalarning ijodiy faolligi individual qobiliyatlarini ochishga qaratilgan metodlar toboro ko'proq qo'llanilmoqda.

Tabiatshunoslik bo'yicha mashg'ulotlarni sinfdan, maktabdan tashqari tadbirlar: ochiq havodagi o'yinlar, o'lkashunoslik ekskursiyalari bilan chambarchas bog'lamoq zarur.

Tabiatshunoslikni o'qitish jarayonida o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalash.

O'quvchilarni har tomonlama tarbiyalash uchun tabiatshunoslik fani cheksiz imkoniyatlarga ega.

Tabiatshunoslik vositasida amalga oshiriladigan komplekt tarbiya faqat darslardagina emas balki o'quvchilarning sinfdan va maktabdan tashqari faoliyatlarida (ekskursiya sinfdan tashqari mashg'ulot maktab oldi bog'laridagi ishlar va boshqalarda) ham muntazamlik hamda rejalilikni talab qiladi.

Tabiatshunoslik bo'yicha mashg'ulotlarda o'qituvchi o'quvchilarni atrof olam bilan tanishtiradi tabiatda bo'ladigan jarayonlarning moddiyligini ochib beradi, inson tabiat to'g'risidagi bilimlar bilan qurollanib, undan o'z manfaati uchun qanday foydalanilayotganini ko'rsatadi. O'qituvchi insonning tabiat boyliklaridan foydalanayotgani to'g'risida hikoya qilib, o'quvchilarni bu boyliklarning xalq xo'jaligidagi ahamiyati to'g'risida xulosaga kelib, albatta tabiatni muxofaza qilish tadbirlari ustida to'xtashi, mamlakatimizdagi tabiat boyliklariga aloxida munosabatda bo'linayotganini aytish tabiat muxofazasi masalasi davlat darajasidagi vazifa ekanligini ta'kidlashi kerak.

Jonajon o'lka tabiati – daryolar, tog'lar, o'rmonlar to'g'risidagi matnlarni o'rganib turib, mamlakat hamda jumhuriyatning xalq xo'jaligi uchun ularning ahamiyatini ta'kidlab o'tish zarur. Bunday ma'lumotlar vatanparvarlik hissini vatan bilan iftixorlanishni tarbiyalaydi va o'quvchilar tarbiyasida muxim omil xisoblanadi.

Moddiy dunyoqarash asoslarini shakllantirish.

Tabiatshunoslik tushunchalarining shakllanishi murakkab fikrlash jarayoning natijasidir. Bu jarayonni boshqara turib o'qituvchi yorqin misollarda tabiat sirlarini ochib rejali ravishda asta – sekin tabiat bilan tanishtirib borish shu ish uchun poydevor yaratadi.

Bolalarni atrof muxit va odamlar hayoti bilan tanishtira borib o'qituvchi aniq misollarda tabiat hodisalari sabablarini tushuntirib berishi kerak va o'quvchilarning bu hodisalar o'rtasidagi oddiy bog'lanishlarni tushunib olishlariga intilishlari kerak. Natijada o'quvchilar tabiat bir butunlik unda jism va hodisalar bir biri bilan uzviy aloqada bir-biriga bog'liq ekanligini tushunib olishga imkon beradigan bilimlarni to'playdilar.

Biroq kichik yoshdagi maxsus maktab o'quvchilari uchun faqat eng aniq ko'zga tashlanadigan aloqalar tushunarli bo'ladi.

Chunonchi 1-2-sinf o'quvchilari tabiatdagi mavsumy o'zgarishlarni tabiatni kuzatib kuzdagi va qishdagi hodisalar so'lish, baxordagi esa ilish bilan bog'liqligini payqaydiganlar. 3-4- sinflarda kuzatishlar natijasida endi tabiatning ayrim elementlari o'rtasida oddiy bog'lanishlar borligini aniqlaydilar. Bolalar nima uchun kun bilan tun yil fasllarining almashinishi va hokazolarni bilib oladilar. Inson xo'jalik faoliyati bilan tanishtirish o'quvchilarga xar xil tabiiy zonalarda vatanimiz tabiati xilma-xiligining odamlar mehnat faoliyatining qiziqarli manzarasini ochib beradi.

Tabiatshunoslik darslarida moddiy dunyoqarash asoslari o'qituvchi tomonidan rejali ravishda uzoq vaqt davomida olib boriladigan ishlar jarayonida shakllanadi. Tabiatshunoslikni o'rgana boshlashdanoq o'quvchilarda o'simlik va hayvonot dunyosi to'g'risida moddiy tushunchalarni shakllantirib borish, amaliy ishlarni bajarish, tajribalar kuzatishlar ekskursiyalar o'tkazish jarayonida esa olingan tushunchalar ilmiy nuqtai nazardan tasdig'ini berishi kerak.

Kichik yoshdagi maktab bolalari "Nima uchun yomg'ir yog'adi?", "Tog'lar qayerdan paydo bo'lgan?", "Nima uchun ko'katlar yashil?", va boshqa ko'pgina savollar berib go'yo o'zlari uchun dunyoni ochadilar va bolalarda atrof hayotga bo'lgan qiziqish so'nmasligi uchun o'qituvchining ular oldida ajoyib va go'zal bo'lib ko'rinishi uning o'ziga bog'liq. Atrof olamda bo'lgan bolalar qiziqishini quvvatlash uchun o'qituvchi barcha savollarga aniq-ravshan muximi qiziqarli va tushunarli qilib javob berishi kerak. Bolalarni qiziqtirish bolalar bilan ishni shunday tashkil qilish kerakki ularning o'zlari tabiatning ayrim hodisalari o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlashga ularda borayotgan o'zgarishlarni payqashga o'rgansinlar.

Tabiatni estetik qabul qilish.

Kichik yoshdagi maxsus maktab o'quvchilari uchun atrof olamni xayajon bilan qabul qilish xarakterlidir.

Bolalar xamma narsani qarab chiqishlari, qo'l bilan ushlab ko'rishlari, kattalarning tushuntirishlarini bajonidil tinglashlariga qaramay atrofdagi hodisalarda ko'p narsalarni payqab ololmaydilar chunki ular o'zlarining xissiyot va qiziqishlarini qo'zg'atuvchi tasirlarga e'tibor beradilar, muxim bo'lsa ham xayajon uyg'otmaydigan narsalarga e'tibor bermaydilar.

Tabiatga ekskursiyalarda olingan materiallarni to'plash va ishlash tabiat kalendarini yuritish tirik burchakdagi mashg'ulotlar sinfdan tashqari o'qishlar tabiatshunoslik darslarida boshlangan o'quvchilarning estetik tarbiyasini to'ldirish hamda chuqurlashtirilishi kerak.

Estetik tarbiyada ko'rgazmali qurollarni to'g'ri tanlash ular chiroyli, jozibador qiziqishini qo'zg'atuvchan bo'lishi kerak. Bunday qurollardan foydalanish badiy didu farosatni rivojlantiradi fanga muxabbatni singdiradi.

Estetik tarbiyaning samarali vositalaridan biri tabiatshunoslik darslarida mashxur rassomlar chizgan suratlaridan foydalanish va o'qituvchining badiy asarlaridan parchalarni sharxlab o'qishdir, chunki tabiatni shoirona qabul qilish uni chuqurroq tushunish hamda go'zalligini xis etishga yordam beradi.

Buning uchun N.K. Ayvaovskiy, I.I. Levitar, A.K. Savrasov, G. muvaffiqiyatli ravishda foydalanish mumkin.

Bolalarning estetik xislarini rivojlantirishga didu farosatlarini shakllantirishga va bilim doiralarini kengaytirishga tabiatga ekskursiyalar o'tkazish katta tasir ko'rsatadi. Tabiatni o'rganish uni estetik qabul qilish bilan uyg'unlashishi kerak.

Bolalarda tabiatdagi mehnatga ijodiy munosabatni tarbiyalash kerak. Biroq barcha e'tibor faqat tabiat obektlari bilan zavqlanishga qaratilsa estetik tarbiya tasirli bo'lmaydi.

Estetik tarbiyaning vazifasi:

Tabiatda go'zallikni ko'rishgina emas balki uni idrok etishga ya'ni o'quvchilar o'qituvchi topshirig'i bilan, masalan: qushlar bayrami, hosil bayrami kabi har xil darsga oid bo'lgan mavzular bo'yicha kechalarda ishtirok etadilar.

Tabiatga ekskursiya, bog' sayllariga o'tkaziladigan ekskursiya va hayvonot olamiga ekskursiyalar aqli zaif o'quvchilarda emosional zavq bag'ishlaydi. Ularga go'zallikni xis qilishga tabiatni go'zalligini tariflash orqali o'qituvchi o'quvchilarda axloq, go'zallik hislarini tarbiyalaydi. Yordamchi maktab tabiatshunoslik talimida aqli zaif o'quvchilarga jonli va jonsiz tabiat uning ko'rinishlari, ijtimoiy foydali mehnatga o'rgatish orqali kelajakda jamiyatda o'z o'rnini topa olishi, tabiatga mehr-muhabbat uyg'otish orqali ona vatanini sevishta, uning tabiatini ardoqlashga, malakalar hosil qilinib, bilish faoliyati o'quv jarayonida korreksiyanib boradi.

Jismoniy va ruhiy tomondan rivojlanishida kamchiligi bo'lgan bolalarga talim tarbiya berish orqali ulardagi kamchiliklar, bilish faoliyati tuzatiladi.

Yuqori sinflardan jonsiz tabiat (5 sinf), o'simliklar olami (6 sinf), hayvonat olami (7 sinf), Odam (8 sinf) dagi talim tarbiya, aqli zaif o'quvchilarni bilish faoliyatlarini tabiatshunoslik darslarida korreksiyalash-tuzatish bo'yicha ko'pchilik vatandosh olimlar, masalan:

L.V.Rumyanseva "Yordamchi maktab 5-sinf jonsiz tabiat" darslarida amaliy topshiriqlar bajarishning korreksion ahamiyati, A.V.Usvayskaya "Boshlang'ich sinflarda tabiatni o'rganish" -1980 yil, G.F.Yablakova "Tabiatshunoslik darslarida aqli zaif o'quvchilarga tabiat haqidagi bilimlar berishning usullari", A.G.Grigoryans "Tabiatshunoslik", "Atrofimizdagi olam", Sayidazizovanning "Nutq o'stirish" kabi adabiyotlari mavjud.

Lekin yordamchi maktab tabiatshunoslik darslarining korreksion talimiy va tarbiyaviy vazifalari alohida mavzu bo'lib adabiyotlarda o'rin olmagan.

Aqli zaif o'quvchilar, o'zi yashab turgan joy tabiatini, olamni yaratilishi, materiyanı birlamchiligini bilishi, ularni bilish faoliyatini jonli va jonsiz tabiatni idrok etishi, sezgilari orqali sezish, xotira orqali eslab qolish, nutq orqali tafakkurni rivojlantirish, mehnat orqali mustaqil hayotga tayyorlash, estetik va ekalogik tarbiya orqali, go'zallikni his qilishga, sevishga, uni ardoqlashga, tabiatni saqlab qolish, Ona Vatanni sevishga, tabiat go'zalligini boyitishga bo'lgan bunday ishonchli maqsad, vazifalar, faqat tabiatshunoslik darslarida aqli zaif o'quvchilarni bilish faoliyatlarini tuzatish (korreksiyalash) talim-tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Shu maqsadda, bitiruv ishimizning mavzusini "Yordamchi maktablarda tabiatshunoslik o'qitishning talimiy-tarbiyaviy va korreksion axamiyati" deb nomladik.

Ta'lim tizimida islohatlar o'tkazish va o'quvchilarni zamon talabiga javob beradigan qilib tayyorlash masalalari, ularni xalqimizning, avlod-ajdodlarimizning tabiatga bo'lgan munosabatlari ijod va bunyodkorlik ishlarini xullas o'tgan mutaffakirlarning tarixini yaxshi o'rganishlari va yosh avlodga talim tarbiya berilishida ularning xurmatlarini o'rganish eng dolzarb tarbiya vositasi xisoblanadi. Yordamchi maktab o'quvchilariga tabiatshunoslik darslarida ularga fanning mazmunini va o'rganish metodlari bo'yicha o'quvchilarda milliy qadriyatlarni tarbiyalash; jonli va jonsiz tabiatni sevib uni ardoqlashga o'rgatish.

Kelajak avlodning tafakkuri, dunyoqarashini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida shakilantirib, ularning bunyodkorlik faoliyatini oshirish mustaqillik poydevorini mustahkamlashga yordam beradigan vazifalarni tarbiyalash lozim.

-Tabiat inom etgan barcha narsalarni avaylashga, ko'paytirishga qaratilgan talimni tarbiyalash;

-tabiatning paydo bo'lishi va o'zgarib turishini diniy yo'l bilan emas, balki fan tilida tushuntirish;

-tafakkurning mustaqilligi va bilishga qiziqishni rivojlantirishni, buningsiz bilimning ongli bo'lishi hamda ishonchni va oqibatda dunyoqarashni shakllantirish mumkin emas;

-yashab turgan o'lka, maxalla, maktab atrofidagi o'simliklarni, hayvonlarni, jonsiz tabiat borliqlarini avaylab asrash tarbiyaviy tasirini o'tkazish;

-nazariya bilan amaliyotni birga olib borish o'quvchilarni kasbga tayyorlash;

-o'quvchilarda mehnat madaniyatini va bilimni kelajakda mustaqil ravishda qo'llay olish uquvlarini rivojlantirish;

-tabiat bilan munosabatda bo'lish tasirida go'zallikni his qila bilish tuyg'ularini shunga bog'liq holda Vatanga muhabbatni uyg'otish ko'nikma va malakalarini tarbiyalash.

Tarbiya rejali ravishda muayyan sistemada, bilish faoliyatiga bog'liq holda, o'quv materialini mazmuni va uni didaktik faoliyatlar bilan yoritilishiga uni o'qitishning metod va shakllariga qarab amalga oshiriladi. Bunday tarbiyaga butun pedagogik faoliyatning maqsadga yo'nalganligi bilan erishiladi. O'qituvchi tabiatshunoslik o'qitish jarayonida barcha imkoniyatlaridan foydalanishi mumkin. Bunda pedagog fanning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishi va o'quvchilarni bilish faoliyatlarini hisobga olgan holda bilim va tarbiya oddiy usullarda tushunarli qilib aqli zaif o'quvchilar ongiga yetkaziladi.

Ta'limga bog'langan holda tarbiya g'oyat murakkab va o'quvchilarni bilish va o'zlashtirish faoliyatlari nazarda tutib ish ko'rishni talab etadi. U faqat ozmi-ko'pmi tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan o'quv materialining mazmuni bo'yicha o'quvchilarga axborot berishdan iborat bo'lishi mumkin emas.

Tarbiya tarbiyaviy xarakterdagi bilimni esda qoldirishgina emas, balki bilimlarni ishonchga aylantirishdan ham iboratdir. Bu ishonch oqibatida sistemani, dunyoqarashni shakllantirish kerak.

Bunday tarbiya ishonch o'quvchilarni, odamlarni o'rab olgan dunyoga bo'lgan munosabatda, odamlarda, ish qilishda, xulq atvorida, namoyon bo'ladi.

Tarbiya darslarda chegaralangan tarzda olib boriladi, xaqiqatda ham tarbiya faqat darslarda emas, balki o'quvchilar bilan reja asosida olib boriladigan o'quv ishlarini birga shakllarida (ekskursiyalarda, darsdan va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda) muayyan sistemani talab qiladi.

Tarbiya elementlarini o'zaro bog'lanishi.

Dunyoqarashni tarbiyalash mustaqil tafakkurni va o'rab olgan dunyoga to'g'ri munosabatda bo'lishni rivojlantirish bilan chambarchas bog'liqdir;

- Tafakkurni tarbiyalash – mehnatda va hayotda bilimni tatbiq qilish bilan bog'liq;

- Mehnat madaniyatini tarbiyalash bilimdan foydalanish va estiteka bilan bog'liqdir;

- Estiteka tarbiya idrok qilish etika bilan tabiat turmush bilan tasirni munosabatda bolish bilan bog'liq;

- Etik (axloqiy) tarbiya dunyoqarash idrok qilish va jamoadagi, tabiatdagi, oiladagi, mehnat bilan bog'liq. Mehnat tarbiyasi aqli zaif o'quvchilarni kelajakda hayotga tayyorlashda ularni bilish faoliyatlarini korreksiyalashda katta ahamiyatga ega bo'lib xar bir dars turlari bilan bog'liq aqli zaif o'quvchilarni tarbiyalaydi.

Tarbiya elementlarini o'zaro bog'lantirishda estitek tarbiya bilan bog'lanadi. Chunki tabiatshunoslik darslarini hamma boblariga javob berishida aqli zaif o'quvchilarni go'zallikni sevishga xar bir o'rgangan bilim ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishda etik, estitek tarbiya berish zarur va bu tarbiya qonuniy ravishda o'zaro bog'lanishda bo'ladi. Aqli zaif o'quvchilarga beriladigan ta'lim tarbiya bosqichma-bosqich sistema asosida rivojlanishida bo'lish bilan xar bir bilim malakalarini o'zlashtirishda korreksion maqsad va vazifalar nazarda tutiladi.

II. BOB. TABIATSHUNOSLIK DARSLARINING KARREKSION TA'LIMIY-TARBIYAVIY YO'NALTIRISH METODLARI.

2.1. Tabiatshunoslik darslarining korreksion yo'naltirish metodlari.

Tarbiya rejali ravishda, muayyan sistemada, bilim jarayoniga bog'liq xolda, o'quv materialining mazmuni va yoritilishiga va uni o'qitishning metod va shakllariga qarab amalga oshiriladi. Bunday tarbiyaga butun pedagogik jarayonning maqsadga yo'nalganligi bilan erishiladi.

O'qituvchi tabiatshunoslik o'qitish prosessida ko'p tamonlama tarbiyaning barcha bu imkoniyatlaridan foydalanish mumkin. Unga o'z predmetining o'ziga xos imkoniyatlarini xisobga olish va materialni bilgan xolda tarbiyani to'liq amalga oshirish g'oyat muximdir.

Ta'limga bog'langan xolda tarbiya berish g'oyat murakkab va ancha o'ylab ish ko'rishni talab qiladi. U faqat ozmi-ko'pmi tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan o'quv materialining mazmuni bo'yicha o'quvchilarga axborat berishdan iborat bo'lishi mumkin emas. Tarbiya tarbiyaviy xarakterdagi bilimni esda qoldirishdangina emas, balki bilimlarni ishonchga aylantirishdan ham iboratdir, bu ishonch odamlarga, o'rab olgan dunyoga bo'lgan munosabatda, odamlarda ish tutishi, xulq-atvorda namayon bo'ladi.

Tarbiyaning bu ancha muxim sifati ko'pincha e'tiborga olinmaydi, darslarda tarbiyaviy materialni normal bayon qilish bilan cheklaniladi. Xaqiqatda esa tarbiya faqat darslardagina emas, balki o'quvchilar bilan planli (rejali) ravishda olib boriladigan o'quv ishlarining barcha shakllarida (ekskursiyalarda, darsdan va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda) muayyan sistemani talab qiladi.

Tabiatshunoslikni o'rganish bilan bog'liq xolda amalga oshiriladigan tarbiyaning barcha xilma-xil imkoniyatlarini bir-biri bilan bog'liq bo'lgan ma'lum elementlarga birlashtirish mumkin.

Dunyoqarashni tarbiyalash mustaqil tafakkurni va o'rab olgan dunyoga to'g'ri munosabatda bo'lishni rivojlantirish bilan chambarchas bog'liqdir;

Tafakkurni tarbiyalash – mehnatda va hayotda bilimni tadbiq qilish bilan bog'liqdir; mehnat madaniyatini tarbiyalash-bilimdan foydalanish va estetika bilan bog'liq; estetik tarbiya, idrok qilish va etika bilan, tabiat, turmush va mehnatga ta'sirli munosabatda bo'lish bilan bog'liq;

Etik (axloqiy) tarbiya – dunyoqarash, idrok qilish, ish va jamoadagi, tabiatdagi va oiladagi mehnat bilan bog'liq.

Har bir element va butun barcha tarbiya idrok qilish va o'quvchilarning faoliyati bilan bog'liqdir.

Tarbiyaning barcha elementlarining bunday o'zaro bog'lanishi uning mafoqiyatini ta'minlaydi.

Dunyoqarashni tarbiyalash.

Yordamchi maktabda o'qitiladigan har bir o'quv predmeti o'quvchilarga ma'lum doiradagi bilim, o'quv va ko'nikmalar berish bilan birga ularning dunyoqarashini ham tarbiyalaydi. Bunday dunyoqarash o'quvchilarning tasavvur va tushunchalarini shakllantiradi, bu tizim kishining o'rab olgan dunyoga munosabati, jamoa va jamiyatdagi xulq-atvorini belgilaydi. Odamning faqat tabiat va jamiyat to'g'risidagi fan va amaliyotga asoslangan bilimlari izchil va ta'sirli bo'ladi.

Tabiat to'g'risidagi yetakchi fanlarning biri – tabiatshunoslik zimmasiga o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda ancha mas'uliyatli vazifalar tushadi. Shu jixatdan tabiatshunoslik yordamchi maktabning o'quv predmeti sifatida o'zining mazmuni bilan juda katta imkoniyatlarga ega.

Dunyoqarashni tarbiyalashda muxim masalalardan biri-nazaryaning amaliyot bilan bog'lanishidir.

Yordamamchi maktab o'qituvchisi aqli zaif o'quvchilariga beradigan vazifalarni dastur asosida, o'quvchilarning bilish faoliyatlarini xisobga olgan holda, bilimlar beriladi, shu bilan birga, o'quvchilarni xar tomonlama tarbiyalash, dunyoqarashini tarbiyalash sistemasini tashkil qiladi. Bu esa tarbiyalovchi ta'lim prinsipini amalga oshiradi.

Tafakkurni tarbiyalash.

Dunyoqarash o'quvchi tafakkurining rivojlanishi bilan birga shakllanib boradi. Tafakkur jarayonida o'quvchilar mantiqiy fikr yuritishga, taqqoslash, xulosalar chiqarish, umumlashtirish va amaliy masalalarni hal qiladilar. Bunda voqeya, hodisalarning o'zaro bog'lanishlari ustida mulohaza yuritishga yordam beradi. Muloxaza yuritish o'quvchilarning o'quv materialini o'zlashtirishda onglikka va uni puxta esda qolishiga olib keladi. O'quvchilar ongli bilimlarni yod olish yo'li bilan emas, balki foal fikrlash jarayonida oladilar.

Odam tafakkuri uning dunyoqarashi bilan ajralmasdir. Shuning uchun ham yosh avlodda dunyoqarashni tarbiyalashni tafakkurdan ajratib bo'lmaydi.

Aqli zaif o'quvchilarning bilim olish, ular faol mustaqil fikr yuritganlarida, nazariyada olgan bilimlarini amaliyotda qo'llaganlarida ongli va puxta bo'ladi.

Tabiatshunoslik o'qitish o'quvchilar tafakkurini tizimli ravishda rivojlantirish uchun barcha ma'lumotlarga ega. Tabiatshunoslikni o'rganishda o'quvchilar kuzatilishi va taqqaslanishi mumkin bo'lgan aniq hodisalar bilan tanishadilar, o'zaro bog'liqlik va o'zaro tabiiylikni aniqlash, xulosalar chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladilar, shuning bilan birga, ular bolalik qonuniyatlar va ilmiy g'oyalar bilan tanishadilar.

Tafakkurning ikki mantiqiy: induktiv va deduktiv yo'li mavjud. Ular o'z ichiga tabiatshunoslik o'qitish jarayonida e'lon bo'lgan mantiqiy operatsiyalarni: taqqoslash, analiz, sintez (mavhumlashtirish), umumlashtirishlarni oladi.

Deduktiv yo'l umumiy qoida, prinsiplaridan ayrim hodisalarni tushuntirishga yoki hodisalar bilan umumiy qoidalarni tasdiqlashga olib keladi. Deduksiya analizda qo'llaniladi va u bilan chambarchas bog'langan Induksiya sintez bilan bog'langan va yakunlovchi muloxozalarga olib keladi.

O'qitish jarayonida aqli zaif o'quvchilarda induktiv va deduktiv fikirlash qobiliyatini, xar qanday o'qitish usulida sintez qilish qobiliyatlarini rivojlantirish zarur.

Mehnat madaniyatini tarbiyalash.

Inson faoliyati asosan uch turga bo'lib o'rganiladi. Bularning birinchisi o'yin, ikkinchisi ta'lim faoliyati va uchinchisi mehnat faoliyatidir.

Aqli zaif bolalar o'yin orqali o'qish va mehnat faoliyatlariga tayyorlanib boradilar. Aqli zaif bolalarning turli mehnatga qatnashishlari orqali, ularda karreksion ishlarni amalga oshirish orqali ularni keyingi hayotga tayyorlab borishdan iboratdir. Tarbiya vositasi shunday mehnat bo'lishi kerakki, bunda ma'lum tarzda, ma'lum maqsadda mehnat tarbiya prosessining bir qismi sifatida tashkil etilgan .

Mehnat madaniyatini tarbiyalash aqli zaif o'quvchilarning eng oddiydan boshlab, individual va ayniqsa jamoa bo'lib o'quv ishlari bajarishlarida mo'ljallanadi. O'quv mehnati sharoitlarini tashkil qilish to'g'risidagi masala birmuncha aloxida turadi.

Mehnat madaniyatini tarbiyalashda, birinchi navbatda maktab binosiga, o'quv jihozlariga o'quvchilar munosabatini tarbiyalamoq lozim.

Mehnat madaniyati ko'nikmalari o'quvchilar tomonidan xar bir topshiriqni bajarishlarida rivojlanadi. o'qitish jarayonida bu ko'nikmalar sistemali tarzda shakllantirib boriladi.

Maktabda olingan mehnat madaniyati ko'nikmalari sistemali tarzda shakllantirib boriladi.

Maktabda olingan mehnat madaniyati ko'nikmalarini ishlab chiqarish amaliyotida va ijtimoiy ishlar bajarilayotganda dalalarda ham o'tkaziladi.

Mehnat madaniyati estetik tarbiya bilan chambarchas bog'liq.

Estetik tarbiya.

Estetika – go'zallik elementlari,sharoitlari va qonunlari to'g'risidagi fandır. Estetik tarbiya go'zallik hissi, tuyg'ular, badiiy didni rivojlantirishga qaratilgandır.

Estetika mehnatda, ijtimoiy va shaxsiy hayotda o'z atrofida go'zallik barpo etishga intilishni vujudga keltiradi. Go'zallikni ko'ra bilish,idrok qilish, barpo etish va chiroyli ish ko'rish-tarbiya vazifalaridan biridir.

Tabiatshunoslikni o'rganish tabiat go'zalligini estetik xis qilish bilan bevosita bog'liqdir,bu chuqur tarbiyaviy va idrok qilish ahamiyatiga ega.

Tabiatni idrok qilishning estetik tuyg'usini qabul qilish, tabiatga qiziqishni rivojlantirish va oqibatda vatanga muhabbat tuyg'usi bilan bog'liqdir. Estetik idrok qilish – bu faqat mushohada va tabiat go'zalligi, chiroyli narsalar, san'at asarlari bilan zavqlanishgina emas balki tabiatga, fanga, mehnatga, o'rab olgan hayotga munosabati hamdir.

“San'atdagi go'zallik o'zining manbai bilan tabiatdagi go'zallikdir va unga taqlid hamda uni ideallashtirishdir;tabiatdagi go'zallik san'atdagiga qaraganda dastlabkiroqdir. Shuning uchun ham aqli zaif o'quvchilarda tabiatga nisbatan estetik ta'sirlanuvchanlikni, har holda eng oddiy va sirli bo'lmagan narsalar bilan rohatlanish qobiliyatini uyg'otish g'oyat muhimdir.

Tabiatshunoslik darslarida o'qituvchi tirik o'simliklarning go'zalligini ochib beradi. Bunga o'qituvchi kuzda gul va mevalrni o'rganish bilan bog'liq holda dastlabki tabiatshunoslik darslarida o'quvchilar e'tiborini qaratadi.

O'quvchilar e'tiborini o'simlikning tashqi go'zalligiga qaratib, yashirin go'zallikni, uning hayotini, muhit bilan xarakterli uyg'unlashtirishni, uning vatanini, kelib chiqishini insoniyat madaniyatidagi rolini idrok qilishga o'rgatmoq, ya'ni faqat chiroyli gulgina emas balki o'simlikni, unga bog'lik bo'lgan masalalarni butun majmuasida qarab chiqish lozim.

Estetik tarbiya qo'llanishiga ko'ra quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:

- go'zallikni ko'rish va idrok qilishga, chiroylini xunukdan farq qilishga, bu bilan estetikani idrok qilish bilan bog'lashga:

- tabiatda, mehnatda o'z atrofida – shaxsiy va ijtimoiy hayotda go'zallikni o'rnatish va himoya qilishga, estetikani mehnat va turmush madaniyati bilan bog'lashga;

- chiroyli ish tutishga, estetikani etika bilan bog'lashga o'rgatishdir.

Tabiatshunoslikni o'qitish jarayonida estetik tarbiya ko'p qirrali bo'lishi mumkin va o'quvchilarning tabiat va tirik obyektlar bilan muloqotda bo'lishlarining barcha shakllarida rejali ravishda olib boriladi.

Estetik tarbiyada tabiatga uyushtiriladigan ekskursiyalar shubxasiz birinchi darajali ahamiyatga ega. Bu ekskursiyalarda mavzudan qat'iy nazar fasllarning - bahor, yoz, kuz, qishning, shuningdek, o'rmon burchaklari, yaylov, botqoqlik va nihoyat ayrim o'simliklarning mavsumiy xususiyatlarini qabul qilish o'rin olmog'i lozim.

Tabiatshunoslik o'qituvchilari imkoniyat bo'lganda o'quvchilarni tabiatning badiiy tasviri bilan tanishtirish uchun suratlardan foydalanadilar. Bu o'z navbatida kelgusi bahor va kuzdagi ekskursiyalarda tabiat go'zalligini idrok etishga tayyorgarlik bo'ladi.

Tabiatning go'zalligi, tasviriy san'at va eng asosiysi, ilmiy izlanish romantikasi, tabiatdagi go'zallikni ko'ra olishga o'rganishda namuna bo'ladi.

Hayotni estetik idrok etish, o'rab olgan hayotga ta'sir ko'rsatish, kishining tabiiy ehtiyoj tarbiyani faqat bolalik yoshdan boshlab rejali va tizimli ravishda olib borish orqali vujudga kelishi, mustahkamlanishi va rivojlanishi mumkin. Estetik etika bilan chambarchas bog'liqdir.

Estetik tarbiya o'quvchilarni chiroyli ish tutishlariga olib kelmog'i, shuning bilan birga etik tarbiyaga aylanmog'i lozim.

Sinfdan tashqari ishlarda aqli zaif o'quvchilarni korreksion rivojlantirishni tekshirish natijalari.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilarning o'qituvchi rahbarligida darsda, ularning bilimga qiziqish hamda ijodiy havaskorligini uyg'otish va namoyish qilish uchun tabiatshunoslik bo'yicha maktab dasturini kengaytirish va to'ldirishga qaratilgan darsdan tashqari ixtiyoriy ishlarning har xil tashkil qilish shaklidir.

Sinfdan tashqari ish yordamchi maktablardagi butun o'quv tarbiyaviy ishlarini tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, nuqsonli bolalarni har tomonlama rivojlantirishga ijtimoiy foydali faoliyatda faol ishtirok etishga tayyorlashga xizmat qiladi.

Sinfdan tashqari ishlar asosan ta'lim-tarbiya ishlarini davom ettirib, aqli zaif bolalardagi ruhiy va jismoniy kamchiliklarni yumishatishga, tuzatishga yaxshi sharoit yaratadi.

Sinfdan tashqari ishlar darsdan tashqari vaqtlarda o'tkaziladi. Ularning tizimi izchil bo'lishi, aqli zaif bolalarning psixofizik imkoniyatlarini, ularning qiziqishlarini, qobiliyatlarini xisobga olgan xolda tashkil qilinishi darkor.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilarning o'qituvchi rahbarligida darsda ularning bilimga qiziqish hamda ijodiy havaskorligini uyg'otish va namoyish qilish uchun tabiatshunoslik bo'yicha maktab dasturini kengaytirish va to'ldirishga qaratilgan, darsdan tashqari ixtiyoriy ishlarning har xil tashkil qilish shaklidir.

Mashg'ulotlarning sinfdan tashqari shakli o'quvchilarda dunyoqarashli, mehnat madaniyati va tabiatga muhabbatni tarbiyalashga va bilishga qiziqishni mustaqil kuzatish ko'nikmalarini, tashabbus va jamoatchilikni rivojlantirishga yordam beradi. Sinfdan tashqari ishlarning barcha turlarida muayyan sistema va rivojlanishda amalga oshiriladigan yagona tarbiyalovchi ta'lim prinsipiga amal qilinadi. O'quvchilarning qiziqishini kengaytirish, o'stirishdan iborat.

2.2. Tabiatshunoslik darslarini korreksion yo'nalishlarni tekshirish natijalari.

Aqli zaif o'quvchilarni yordamchi maktabda ta'lim-tarbiya olishi boshqa fanlar qatori ularni tabiatshunoslik fani bo'yicha bilimlarni egallashi, olgan bilim tushuncha malakalarni kelgusida mustaqil hayotda qo'llay olishi uchun xar bir yordamchi maktab o'qituvchisi o'quvchilarga fanni egallashlarida ta'lim-tarbiyaning asosiy maqsadini biladi.

Har bir fanning korreksion yo'naltiruvchi maqsadi aqli zaif o'quvchilarni ijtimoiy foydali mehnatga tayyorlash ayniqsa tabiatshunoslik fanidan ta'lim, bilim berishda o'quvchilarni psixofizik kamchiliklarini to'g'rilab (korreksiya) mustaqil hayotga tayyorlashdan iboratdir. Tabiatshunoslik fanlarida o'quvchilar tabiat olami, jonli va jonsiz tabiat bilan tanishadilar. Ular olamning yaratilishi, yer, suv, havo, yil fasllari, o'simliklar olami, hayvonot olami, inson (odam) tuzilishi anatomiyasi va hayot kechirishida o'simlik hayvonlarga bo'lgan munosabatlarini o'rganadilar. Shuningdek tabiatga bo'lgan munosabatlari go'zallikni his qila bilish, avaylab-asrash, axloq-odob mehnat tarbiyalari atroflicha tabiatshunoslik darslarida o'rganiladi. Buning uchun yordamchi maktab o'qituvchisi o'quvchilarda o'zlashtirish qobiliyatlarini rivojlantirish va bilim berish ko'zda tutiladi.

BILIM – narsa va hodisalarning muxim belgi va xususiyatlar jarayonlar va ular o'rtasidagi bog'lanishlar to'g'risidagi fan aniqlagan tushunchalardan tarkib topgan.

TUSHUNCHALAR – insonga uning dunyoni idrok etishdan aytilishlarida yordam beradi. Inson tushunchalar bilan ish ko'rishda fikr yuritadi, fikr real dunyoni aks ettiradi va bilmaslikdan bilishga tomon qator bosqichlarni bosib o'tadi.

Tashqi dunyoni idrok etishda narsa va hodisalarni sezish ya'ni ular ayrim hodisalarning namoyon bo'lishi boshlang'ich moment xisoblanadi.

SEZGI (sezish)lardan narsani butunlay aks ettiruvchi idrok vujudga keladi, bu anglab idrok asosida ichki obrazlardan iborat bo'lgan kishi xotirasida saqlanadigan tasavvurlar vujudga keladi.

Dialektik tushunchalar dinamik (xarakatchan) holatdadir: inson tushunchalari xarakatsiz emas balki abadiy xarakatda bo'lib biridan biriga o'tib kiradi biri ikkinchisiga qo'shilib kiradi busiz ular tirik hayotni aks ettiraolmaydi. Bunday qonuniyat fanda, hayotda, maktab ta'limida nomoyon bo'ladi. Tushunchalarni rivojlantirish – o'quvchilarga butun ta'lim va tarbiya berish jarayonining xarakatlantiruvchi kuchidir.

Tabiatshunoslik bo'yicha tushunchalar o'quv predmeti sifatida mantiqiy izchillikni rivojlantirishdan va o'zaro aloqada bo'lgan tushunchalar sistemasidan iboratdir.

Shunday qilib yer, osmon, suv, havo, foydali qazilmalar, o'simliklar dunyosi, hayvonot olami, odam haqidagi shuningdek qishloq xo'jaligidagi ishlar ijtimoiy foydali mehnat kabi tushunchalari yordamchi maktab tabiatshunoslik kursining asosiy tushunchalaridir. Odam anatomiyasi va sog'liqni saqlash kursida esa medisina tushunchalari mavjuddir.

Tushunchalar aqli zaif o'quvchilar bilish faoliyatiga mos ravishda berilgan tushunchalardir. Yordamchi maktab tabiatshunoslik dasturida berilgan mavzular ketma-ketlikda oddiydan murakkab tomon boradi.

Yordamchi maktab tabiatshunoslik fanini o'qitishda quyidagi vazifalar qo'yiladi.

- Jonli va jonsiz tabiat, ya'ni suv-havo, foydali qazilmalar, tuproq shuningdek, o'simliklar, hayvonlar va odam organizimining tuzilishi hamda hayoti haqidagi bilimlarni o'quvchilarga yetkazish.

- Tabiat hodisalari, yomg'ir, qor, shamol, fasllar, o'simliklar haqidagi tushunchalarni o'quvchilarda to'g'ri shakllantirish.

- Tabiatga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lishni tarbiyalash.
- O'quvchilarni maktabning tirik tabiat burchagida boqilayotgan hayvonlarni parvarishlash va bir necha o'simliklarni o'stirish usullari bilan dastlabki tanishtirish.
- Sog'liqni saqlash va mustahkamlash imkonini beradigan malakalar hosil qilish.

Yordamchi maktablarda tabiatshunoslik predmetini o'qitish aqli zaif o'quvchilarning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilmog'i lozim. Tirik va jonsiz tabiat bilan tanishtirish jarayonida o'quvchilarda kuzatuvchanlik nutq va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish ularni sabab-oqibat munosabatlar o'zaro bog'liqlikni belgilashning eng oddiy usullarini o'rgatish lozim.

V sinf dasturi to'rt bo'limdan iborat suv, havo, foydali qazilmalar, tuproq.

SUV bo'limida suvning xususiyatlari haqida, suvda eriydigan va erimaydigan moddalar haqida suvning uch holati haqida tabiatda suvning ahamiyati haqida aqli zaif o'quvchilar bilim va tasavvurga ega bo'ladilar bo'lim yuzasidan bir qancha tajribalar o'tkazish o'quvchilar bilim va malakalarini yanada mustahkamlaydi.

HAVO bo'limi havoning asosiy xususiyatlarini va tarkibini o'rganishni o'z ichiga oladi. Bu bo'lim ham oldingi bo'lim singari aqli zaif o'quvchilarga havo xususiyatlari va tarkibiy qismlarini turmushda va sanoatda shakllanishini o'rgatadi.

TUPROQ bo'limda aqli zaif o'quvchilar tuproqning tarkibi mineral va organik qismlari tuproq xillari bilan tanishadilar.

XULOSA

Malumki xar qanday jamiyatning kelajagi yosh avlodning qanday ta'lim olishiga va qay tarzda tarbiyalanishiga bog'liq. Ana shunday avlodgina mamlakat oldida turgan umumdavlat ahamiyatiga molik vazifalarni bajarishga qodir bo'lib o'z xalqining tarixiy taqdirini belgilab bera oladi. Yordamchi maktab o'quvchilari shaxsini, manaviyatini dunyoqarashini davr talabi darajasiga tarbiyalash va korreksion rivojlantirish eng avvallo maktabdan boshlanadi. Shunga ko'ra yosh avlodni o'zini o'rab turgan atrof-muhitga tabiatga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishini tarbiyalab borish, ongiga singdirish jarayonida mehnatga, kasb-hunarga tayyorlash maxsus maktablar, biz pedagoglarni oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Yordamchi maktab ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarini mehnat ta'limi jarayonini o'rganar ekanmiz o'quvchilarni tabiatni sevishga o'simlik olamiga hayvonot olamiga to'g'ri munosabat, mehr-muruvvatli bo'lish ularni parvarishlash, ko'paytirishga qiziqtirish va ularni e'zozlash kabi xislatlarni shakllantirgan holdagina kelajak mehnat faoliyatini aniqlashga ongli tarzda munosabatda bo'lishlari mumkin degan fikrga keldik. Yordamchi maktab o'quvchilariga turli kasblar haqida tushuncha berish, aynan tabiat quchog'ida tabiatni muhofaza qilishga doir o'simliklar va hayvonot olamini muhofaza qilishga parvarishlashga ko'paytirishga doir kasb-xunarlar mavjud ekanligini anglatish orqali o'quvchilarga ekologik ta'lim-tarbiya berish ekologik savodxonlikni oshirish jarayonida ularda mehnatga to'g'ri munosabatni shakllantirishga kasb-xunarga yo'naltirishga tasir etuvchi ayrim jihatlarning shakllanishini aniqladik. Yordamchi maktabda o'qituvchi defektologlarning, jumladan mehnat va kasb ta'limi mutaxassislarining ekologik tayyorgarligi darajasini takomillashtirish ham muhim zaruratga aylanib kelmoqda.

Yordamchi maktab tabiatshunoslik fanlarida korreksion ta'limiy va korreksion tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirish muammosiga bag'ishlangan adabiyotlar tahlili va olib borgan (kuzatishlarimiz) izlanishlarimiz kelgusi ishlarda aniq ma'lumotlar olish imkonini beradi.

Yordamchi maktab aqli zaif o'quvchilarni hamma darslarda ayniqsa tabiatshunoslik darslarida olib boriladigan korreksion ta'lim-tarbiya vazifalarini to'g'ri nazariy-amaliy hayot bilan birga olib borishi zamonaviy o'qitish usullarini darsda qo'llashi aqli zaif o'quvchilarni darsga qiziqishga olib keladi. O'tkazilgan kuzatishlar tekshirishlar quyidagi xulosaga olib keladi.

1. Ta'lim-tarbiya mobaynida aqli zaif o'quvchilar bilish faoliyatini rivojlantirishga ko'proq ahamiyat berilishi;
2. Aqli zaif o'quvchilarga tabiat haqidagi bilimlar mustahkam ravishda berilishi;
3. Yordamchi maktab o'quvchilari dars jarayonida xar bir mavzuni yangi texnologiya asosida o'tishi;
4. Har bir o'tiladigan dars aqli zaif o'quvchilarni ijtimoiy-maishiy hayotga moslashishiga qaratilgan bo'lishi kerak.
5. Tarbiya jarayonida dunyoqarashni tarbiyalash mustaqil tafakkurni va o'rab olgan tabiatga to'g'ri munosabatda bo'lish masalasini hosil qilish;
6. Nutq va tafakkurni tarbiyalash;
7. Mehnat madaniyatini tarbiyalash bilim berish jarayonida estetik tuyg'ularni rivojlantirish;
8. Ta'limda estetik tarbiyani idrok qilish va tabiat turmush va mehnatga tasirli munosabatda bo'lish bilan bog'lash;
9. Etik (axloqiy) tarbiyani – dunyoqarashni idrok qilishi va kollektivdagi (jamoadagi) tabiatdagi, oiladagi, mehnat bilan bog'lash har bir ta'lim-tarbiya elementlari barcha tarbiyani idrok qilish va o'quvchilarning faoliyati bilan bog'liq bo'lishini nazarda tutilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Karimov I.A. O`zbekiston kelajagi buyuk davlat. Toshkent. O`zbekiston. 1992 y.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. Toshkent. O`zbekiston. 1995 y.
3. Karimov I.A. “Barkamol avlod O`zbekiston taraqqiyotining poydevori”. Toshkent. 1998 y.
4. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat yengilmas kuch. Toshkent. 2008 y.
5. Karimov I.A. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O`zbekiston sharoitida uni barataraf etish yo`llari va choralari. Toshkent. 2009.
6. Karimov I.A. “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”. O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo`shma majlisi. 2010 yil.
7. Karimov I.A. O`zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Toshkent. 2011 yil.
8. O`zbekiston Respublikasining “Ta`lim to`g`risida”gi qonuni (1997 yil 29 avgustda qabul qilingan). Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. –Toshkent: O`zbekiston. 1997.
9. O`zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” / Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. –Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa konserni. 1997.
10. Po`latova F. Oligfrenopedagogika. T, 1997.

11. Raxmanova B.V. Maxsus pedagogika. T., 1991.
12. X.M.Po'latova "Maxsus tabiatshunoslik metodikasi" Ma'ruza matni Toshkent 2000 y.
13. N.M.Verzilin, V.M.Korsunskoya "Biologiya o'qitishning umumiy metodikasi" Toshkent "O'qituvchi" 1983 yil.
14. J.Tulenov "Borliq falsafasi" Ma'ruzalar matni Toshkent 2001 y.
15. A.G.Grigaryants "Atrofimizdagi olam" Toshkent "O'qituvchi" 1992 y.
16. A.T.Grigoryants «Yordamchi maktabda tabiatshunoslik darslarida muammoli ta'lim elementlari». T., 1986. Ilmiy typlamda.
17. A.Xamidov, A.Tuxtaev, M.Inogomov va boshqalar. «Botanikadan o'qituvchilar uchun qo'llanma. T. O'qituvchi 1999 y.
18. Kovalyova E.A. Yordamichi maktabda kishlok xujalik ishlari. – M., 1986.
19. A.I.Sagatov, P.M.Pylatova, K.X.Mamedov «Oligofrenopedagogika asoslari». T., O'qituvchi, 1999 y.
20. Rasulov M. «O'rta Osiyo tabiatshunoslik tarixi». T., O'qituvchi 1993 y.
21. Pulatova X.M. «Tabitashunoslikni o'qitish maxsus metodikasi». Fan nashriyoti. 2005 yil.